

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОЧТУ AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

INVESTITSİYALAR BARQARORLIGI

YANGI UFQLAR, SHERIKLIK

Ayni kunlarda poytaxtimizda beshinchi – Toshkent xalqaro investitsiya forumi (TXIF–2026) bo'lib o'tmoqda. «Investitsiyalar barqarorligi: yangi ufqlar, yangi sheriklik» shiori ostida tashkil etilgan nufuzli anjuman dunyoning 100 mamlakatidan minglab delegatlarni bir maydonga jamladi. Forumda ishtirok etayotgan kompaniyalar va moliya institutlari boshqarayotgan aktivlar hajmi 42 trillion dollarga teng bo'lib, bu tadbirning xalqaro iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda.



2

Iftixor

PREZIDENT MAKTABIDAN



LONDON SARI

YOXUD MAYORNING VUNDERKIND FARZANDI

Nurafshon shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o'quvchisi Botirjon Xolmatov dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri – «University College London»ning to'liq grantini qo'lga kiritib, o'qishga qabul qilindi. Mazkur nufuzli oliygoh dunyoning eng kuchli universitetlari o'ntaligiga kirib, QS xalqaro reytingida faxrli 9-o'rinni egallaydi.



2

RULDAGI BOLALAR

bitta kalit ortida qancha xavf yashirin?

So'nggi oylarda O'zbekistonda jamoatchilikni larzaga solgan bir nechta yo'l-transport hodisasida umumiy jihat ko'zga tashlandi: avtoullovni boshqargan shaxslar voyaga yetmaganlar bo'lgan.

Muammoning xavfli jihati shundaki, ko'pchilik haydovchilik huquqi masalasini faqat hujjat bilan bog'laydi. Vaholanki, haydovchilik guvohnomasi shunchaki ruxsatnoma emas. Uni olish uchun inson muayyan yoshga yetgan bo'lishi, nazariy bilimlarni o'zlashtirishi, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi va imtihondan o'tishi talab qilinadi. Bu talablar byurokratik tartib emas, balki inson hayotini himoya qilish mexanizmidir.

Transport vositasini boshqarish faqat avtomobilni harakatga keltirishni bilgan odamning qo'lidan keladigan ish emas. Yo'lda bir necha soniya ichida qaror qabul qilish, xavfni baholash, favqulodda vaziyatda to'g'ri harakat qilish qobiliyati ham talab etiladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bunday ko'nikmalar insonda ma'lum yosh va tajriba shakllanganidan keyin barqaror namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, voyaga yetmagan shaxsning rulga o'tirishi nafaqat huquqiy, balki psixologik va xavfsizlik jihatidan ham jiddiy muammo hisoblanadi. O'smir ko'p holatlarda xavfni kattalar kabi baholay olmaydi. U tezlik oqibatlarini yetarli darajada his qilmasligi, o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholashi yoki ehtiros ta'sirida qaror qabul qilishi mumkin.

Bugun ijtimoiy tarmoqlar ham bu jarayonga ta'sir ko'rsatmoqda. Avtomobil boshqarayotgan yoki yuqori tezlikda harakatlanayotgan voyaga yetmaganlarning videolari vaqti-vaqti bilan tarqalib turadi. Muammo shundaki, ayrim yoshlar bunday harakatlarni qonunbuzarlik emas, balki jasorat yoki obro' belgisi sifatida qabul qilmoqda. Bu esa xavfli xulq-atvorning ommalashuviga xizmat qilishi mumkin.

Prezidentimiz tomonidan mazkur masala alohida ko'tarilgani bejiz emas. 11-iyun kuni bo'lib o'tgan taqdimotda voyaga yetmaganlarning transport vositasini boshqarishiga yo'l qo'ygan shaxslarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Bu yondashuv asosida muhim mantiq bor: fojia sodir bo'lganidan keyin oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra, uning sabablariga qarshi kurashish samaraliroqdir. Chunki ruldagi o'smir ko'p holatlarda muammoning oxirgi bo'g'inidir. Undan oldin esa avtomobil kalitini bergan, bunday harakatga ko'z yumgan yoki uni xavf deb qabul qilmagan kattalar qarorlari turadi.



5

«Ikkinchi imkon»

MUSTAHKAM POYDEVOR

Ichki ishlar vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan «Ikkinchi imkon» loyihasi mamlakatimizda yosh avlod vakillarining ijtimoiy moslashuvi va ularning jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jazoni ijro etish muassasalarida tashkil etilgan ushbu loyiha yoshlarning o'z xatolaridan saboq chiqarib, yangi hayot boshlashi uchun chin ma'noda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Har bir yigit-qizning iste'dodi va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni zamonaviy kasblarga o'rgatish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan yoshlarni raqamli texnologiyalar, xorijiy til-

lar, sport va kasb-hunar sirlariga o'rgatish, ularni jamiyatga foydali insonlar sifatida qaytarish ko'zda tutilgan mazkur loyiha chin ma'noda yosh avlod uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Zangiota tumanidagi 24-sonli tarbiya koloniyasi-



da ochilgan zamonaviy o'quv xonalari ushbu yo'nalishdagi ishlar boshlanishi bo'ldi. Ichki ishlar vaziri, general-

leytenant Aziz Tashpulatov va Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov ishtirokida o'tgan tadbirida

ta'kidlanganidek, hech bir o'g'il-qiz davlat e'tiboridan chetda qolmaydi.

Loyiha ishtirokchilari 8–12 oylik intensiv kurslarda tahsil olishadi. Bu kurslar dasturlash, veb-dizayn, kompyuter muhandisligi va zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini qamrab oladi. Eng muhimi, mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli yakunlagan yoshlar respublika miqyosida tan olinadigan malakaviy sertifikatlar bilan ta'minlanadi.

Hozirda Toshkent, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari-dagi jami 10 ta muassasada 20 ta zamonaviy o'quv xonasi ajratilgan bo'lib, ular zarur texnika va o'quv qurollari bilan jihozlangan. Mutaxassislardan iborat ishchi guruh yoshlarning qiziqishlarini aniqlash orqali yo'nalishlarni belgilab bermoqda.

Feruz YO'LDOSHOV,
o'z muxbirimiz.



INVESTITSİYALAR BARQARORLIGI: YANGI UFQLAR, YANGI SHERIKLIK

(Davomi. Boshlanishi
1- betda.)

Forum doirasida davlat rahbarlari, xalqaro moliya institutlari, suveren investisiya jamg'armalari va transmilliy korporatsiyalar vakillari ishtirokida iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari muhokama qilinmoqda. Xususan, «yashil» energetika, sun'iy intellekt, geologiya, sanoat kooperatsiyasi, transport va logistika sohalariga investitsiyalarni jalb etish masalalari kun tartibidan o'rin olgan.

Forumning birinchi kunida CAEx ko'rgazmalar majmuasida xalqaro sanoat ko'rgazmasi ham o'z ishini boshladi. Unda O'zbekis-

tonning investitsiyaviy, sanoat va eksport salohiyatini namoyon etuvchi istiqbolli loyihalar, zamonaviy texnologiyalar va ishlab chiqarish tashabbuslari taqdim etilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro investisiya forumining yalpi majlisida nutq so'zlad. Ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlarga to'xtalib o'tdi.

Mazkur yirik xalqaro tadbir mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va global iqtisodiy maydondagi o'rnini tobora mustahkamlanayotganini namoyon etmoqda.

Musulmon ZIYO,
jurnalist.

PREZIDENT MAKTABIDAN LONDON SARI yoxud mayorning vunderkind farzandi

(Davomi. Boshlanishi
1-betda.)

Yurtimizda Uchinchi Renaissance poydevorini yaratish, yuqori intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Farzandlarning muvaffaqiyatida, shubhasiz, oilaning o'rnini beqiyos. Xususan, Botirjonning ushbu ulkan yutuq'ida ham unga to'g'ri yo'l ko'rsatgan, zarur sharoitlarni yaratib bergan va qo'llab-quvvatlagan ota-onasining hissasi katta, albatta.

Uning otasi – IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, mayor Shuhrat Abdushukurov.

Yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilayotgan hamkasbimiz xizmatdagi qat'iy intizom va Vatanga sadoqat tuyg'ularini farzandiga ham singdira olgan. Uning xonadonidagi sog'lom muhit, tartib va bilim olishga intilish yuksak natija bilan bo'y ko'rsatdi. Ota kasbining sharafi o'g'ilning ilm maydonidagi matonati bilan uyg'unlashdi.

O'nlab Nobel mukofoti sovrindorlarini, taniqli dav-



lat arboblarni yetishtirgan ushbu oliy o'quv yurtida tahsil olish millionlab yoshlarning orzusidir. Quvonarlisi, universitet o'zbek yigiting iqtidori va salohiyatini yuqori baholab, unga to'liq moliyaviy imkoniyat – 180 ming AQSH dollari miqdorida grant ajratdi.

Botirjon Xolmatovning yutug'i yillar davomida to'planagan mustahkam bilim mahsulidir. U xalqaro miqyosda tan olingan imtihonlarda hayratlanarli natijalarni qayd etgan.

– SAT (Akademik baholash testi) bo'yicha – 1580 ball. AQSH va Yevropaning eng nufuzli oliygohlariga o'qishga kirishda qo'llaniladigan ushbu testda 1600 maksimal baldan

1580 ball to'plash – dunyo miqyosidagi eng kuchli 1 foizlik ko'rsatkich demakdir.

Prezident maktabidagi ilg'or ta'lim tizimi, xorijlik va mahalliy pedagoglarning o'gitlari hamda izlanishlar Botirjonning yutuqlarida mustahkam poydevor bo'ldi.

Botirjon Xolmatov o'z tengdoshlariga maqsad sari qat'iy intilish orzular ushahishiga zamin bo'lishini amalda isbotladi. Bu – Yangi O'zbekistonning chinakam ishonchi, tayanchi va porloq istiqboli bo'lmish yangi avlod vakillarining, hech kimdan kam bo'lmagan yoshlarimizning navbatdagi ulkan yutug'idir.

Abror POYONOV,
katta serjant.

Davlat mustaqilligining 35 yilligi oldidan

VATAN – YURAKDAGI JAVOHIR

Mustaqillikning 35 yilligi arafasida ortga nazar tashlarkanman, taqdir menga in'om etgan ne'matlar, xalqimizning yuksak ishonchi va Vatanimiz ravnaqi yo'lida amalga oshirilayotgan ulkan o'zgarishlar haqida mulohaza yuritaman.



Men butun hayotim, qalb qo'rim, bilim va mahoratimni inson salomatligini asrashga bag'ishlaganman. Uzoq yillik faoliyatim davomida minglab bemorlar bilan yuzlashdim, ularning quvonch va tashvishlariga sherik bo'ldim. Shu bois bir haqiqatni teran anglayman: inson uchun sog'liq va omonlik qanchalik muhim bo'lsa, millat va davlat uchun mustaqillik ham shunchalik bebaho, muqaddas ne'matdir.

Istiqlolning ilk yillarini, sinovli davrlarni yaxshi eslayman. O'sha paytlarda imkoniyatlar bugungidek keng emas edi. Birgina sog'liqni saqlash sohasini oladigan bo'lsak, zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, ilmiy tadqiqotlar uchun

sharoitlar nihoyatda cheklangandi. Biroq xalqimizning matonati, ertangi yorug' kunlarga bo'lgan ishonchi va yurt farovonligini ta'minlashga qaratilgan izchil islohotlar tufayli bugun butunlay boshqa, dunyo havas qiladigan manzaraga guvoh bo'lib turibmiz.

Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, ilm-fan, ta'lim va tibbiyot sohalarini rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Eng chekka, olis hududlarda ham zamonaviy shifoxonalar, tibbiyot maskanlari qad rostlamoqda. Yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratilib, iqtidorli yigit-qizlarimiz dunyoning eng nufuzli ilmiy

markazlari va oliy ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda.

Yoshlar bilan uchrashuvlarda doim bir fikrni takrorlayman: muvaffaqiyat tasodifan kelmaydi. U – tinimsiz mehnat, izlanish, sabr-toqat, kasbga bo'lgan sadoqat va fidoyilik mahsuli. Kimki o'z ustida ishlashdan to'xtamasa, Vatan ishq bilan yashasa, albatta, ko'zlagan ulug' maqsadlariga erishadi.

Vatanparvarlik men uchun balandparvoz shiorlar yoki chiroyli so'zlardan iborat emas. Chin vatanparvarlik – o'z ishini sidqidildan bajarish, el dardiga kamarbasta bo'lish, halollik va mas'uliyat bilan yashashdir. Shifokor uchun bemor hayotini asrab qolish, o'qituvchi



Rahmon MUHAMMADIYEV,
O'zbekiston Qahramoni, tibbiyot fanlari doktori, professor.

uchun komil, ma'rifatli insonni tarbiyalash, ichki ishlar organi xodimi uchun el tinchligi va osoyishtaligini tun-u kun ta'minlash – Vatanga bo'lgan yuksak muhabbat va xizmatning amaliy namunasidir.

Bugun yangi O'zbekiston taraqqiyot yo'lidan dadil odimlamoqda. Bu ulug'vor yo'lida yurt ravnaqiga har bir yurtdoshimiz o'z fuqarolik pozitsiyasi va mehnati bilan munosib hissa qo'shishi lozim. Ayniqsa, yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lib, bilimli, jasur, shijoatli va vatanparvar shaxslar sifatida kamol topishlari zarur.

Men yurtimizning buyuk kelajagiga ishonaman. Chunki bu zaminni jonidan ortiq sevuvchi, uning taraqqiyoti uchun kecha-yu kunduz mehnat qilayotgan fidoyi insonlarimiz ko'p. Vatan ravnaqi yo'lidagi sharaflari xizmatlarimiz bardavom bo'lsin.

Qonunchilikdagi yangiliklar

Mamlakatimizda jinoyat sodir etgan shaxslarning ijtimoiylashuvini ta'minlash, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalab, jamiyatning munosib a'zosi sifatida shakllantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jazo muddatini o'tash davrida mahkumlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini sog'lomlashtirish tizimidagi islohotlarning asosiy mezoniga aylandi.

2026-yil 15-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi qonun bilan Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan adabiyotlarni o'qish va ularni rag'batlantirishga doir muhim qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Mazkur qonunning mantiqiy davomi sifatida Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 12-iyundagi «Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning jazoni o'tash

Ko'p kitob o'qigan mahkum

IMTIYOZGA EGA BO'LADI



davrida to'g'ri ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan adabiyotlarni o'qiganligi faktini tasdiqlash bo'yicha komissiya faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi nizom qabul qilindi. Ushbu hujjatda mahkumlarning kitob o'qiganlik faktini tasdiqlashning huquqiy mexanizmlari belgilab berildi.

Jahon tajribasida mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirishning eng samarali vositalaridan biri sifatida ta'lim va kitobxonlik e'tirof etiladi. Kitob insonning ma'naviy olamini boyitadi,

huquqiy ongini oshiradi hamda hayotiy qadriyatlarni qayta ko'rib chiqishga undaydi.

Mazkur nizomning asosiy maqsadi ham mahkumlarning belgilangan adabiyotlarni o'qish orqali ma'naviy-axloqiy jihatdan tuzalishini rag'batlantirishdan iborat. Shu tariqa, jazoni ijro etish muassasalarida tarbiyaviy ta'sir choralari yanada kuchaytiriladi.

Nizomga muvofiq, muassasalarda mahkumlarning adabiyotlarni o'zlashtirganligini baholash uchun maxsus komis-

siya tashkil etiladi. Komissiya tarkibi muassasa xodimlari bilan bir qatorda, jamoatchilik vakillarini ham qamrab oladi. Bu esa baholash jarayonining ochiqligi, xolisligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur hujjatga ko'ra, mahkumlarning bilim darajasi «E-mahkum» axborot tizimi doirasidagi maxsus dastur orqali baholanadi. Har bir adabiyot bo'yicha 25 ta test savoli taqdim etiladi va har bir savolga javob qaytarish uchun ikki daqiqadan vaqt ajratiladi. Test natijalari 100 ballik tizim asosida baholanadi hamda 70 va undan yuqori ball to'plagan talabgor testni muvaffaqiyatli topshirgan hisoblanadi. Ushbu mexanizm, bir tomondan, mahkumlarning kitobni haqiqatda o'qiganligi va mazmunini o'zlashtirganligini aniqlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan inson omilini kamaytirish orqali baholash jarayonining shaffofligini ta'minlaydi.

Nizomning muhim jihatlardan biri kitob o'qish va uning mazmunini o'zlashtirishni rag'batlantirish mexanizmidir. Unga ko'ra, har bir muvaffaqi-

yatli o'zlashtirilgan kitob uchun mahkumning jazo muddati uch kunga qisqartirilishi mumkin. Mazkur imtiyoz bir yil davomida ko'pi bilan o'ttiz kungacha tatbiq etiladi. Ushbu tartib mahkumlarni kitob mutolaasiga jalb qilish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ma'naviy-axloqiy jihatdan tuzalish jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur nizom insonparvarlik va tarbiyaviy ta'sir prinsiplariga asoslangan zamonaviy huquqiy mexanizm hisoblanadi. Unda kitobxonlikni rag'batlantirish, bilimlarni xolis baholash, jamoatchilik nazoratini ta'minlash hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kabi muhim jihatlar o'z ifodasini topgan. Belgilangan tartib mahkumlarning ijobiy xulq-atvorini shakllantirish, ularni jamiyatga moslashtirish va takroran jinoyat sodir etishining oldini olishda samarali omil bo'ladi.

Aziz NURMATOV,
IIV huzuridagi JIED
Tarbiyaviy ishlarni
tashkil etish boshqarmasi
boshlig'i, podpolkovnik.

«NOVZA» MAHALLASI

tong-
dan tun-
gacha



08:00. Poytaxtning Chilonzor tumanidagi «Novza» mahallasi profilaktika katta inspektori, katta leytenant Bekzod Qudratov allaqachon xizmat joyida. Uning ish kuni hamkasbi, profilaktika inspektori, katta leytenant Navro'zjon Xolov hamda IIVdan mahallaga biriktirilgan mas'ul, podpolkovnik Bekzod Hayitov bilan mahalladagi vaziyatni tahlil qilishdan boshlandi.

«Novza» mahallasi o'zining katta hududi va aholi gavjumligi bilan ajralib turadi. Bu yerda 57 ta ko'p qavatli uy bo'lib, 8200 nafardan ortiq fuqaro istiqomat qiladi. Geografik joylashuvi esa mas'uliyatni ikki hissa oshiradi. Boisi, mahalladagi «Novza» masjidi Haj amallarini bajarishga borayotgan ziyoratchilarni kuzatish va kutib olish markazi hisoblana-di. Shuningdek, hududda G'afur G'ulom nomidagi istirohat bog'i hamda ikkita yirik supermarketda ham kundalik nazorat va doimiy ziyraklik talab etiladi.

– Hududda yuz berayotgan jinoyatlarning aksariyati mahallaga kelib-ketuvchi shaxslar tomonidan sodir etilmoqda, – deydi podpolkovnik Bekzod Hayitov. – Vaziyatni nazoratga olish uchun tig'iz vaqt rejimida ishlashga, obyektlarni «qizil» va «sariq» toifalarga ajratib, tungi vaqtlarda qo'shimcha PPX naryadlarini jalb etishga e'tibor qaratyapmiz. Bundan tashqari, hududdagi 500 dan ortiq ijara xonadonlarini nazorat qilish orqali mahallada kimlar yashayotgani aniqlanib, shaxsiga oydinlik kiritilmoqda. Raqamli tizim esa hududni videokuzatuv moslamalari orqali kaftdek ko'rib turish imkonini beradi.

Tuman IIOFMB rahbariyati bilan birgalikda kriminogen nuqtalar aniqlanib, hudud to'liq 360 gradusli va yuzni tanib oluvchi (Face ID) intellektual kameralar hamda «tashvish tugmalari» bilan jihozlangan. Aytish joizki, ushbu ilg'or tajriba va ish uslublari kelajak avlod uchun ham katta maktab vazifasini o'tamoqda. Shu sababli, mahallada IIV Akademiyasi kursantlari bir necha oy davomida amaliyot o'tashgan bo'lsa, hozirda IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyi o'quv-

chilari ham bevosita jarayonda ishtirok etmoqda.

10:30. Katta leytenant B.Qudratov mahalla fuqarolar yig'ini raisi Mansur Sidiqov bilan uchrashdi. U mazkur mahallaga 21 yildan buyon raislik qilib keladi va hududdagi har bir xonadonni besh qo'liday biladi.

– Mahallamiz yetiligi hamjihatlikda ishlayapti, – deydi oqsoqol. – Yil boshidan buyon qirim yoqasiga kelib qolgan



12 ta oiladan 11 tasini ko'pni ko'rgan nuroniy otaxon-u onaxonlar, otinoyilar va profilaktika inspektorlarimiz bilan yarashtirishga erishdik. Obodonlashtirish ishlari yuzasidan gapiradigan bo'lsam, yoshlarimiz uchun 16 ta zamonaviy bolalar maydonchasi, 12 ta workout maydoni, 2 ta katta va 1 ta kichik stadion xizmat qilyapti. Bundan tashqari, 138-uy

Profilaktika inspektorining bir kuni



yonidan oqib o'tuvchi anhor bo'yida yoshlarning murojaati asosida futbol, voleybol maydonchasi, shuningdek, aholi salomatligi uchun xizmat qiluvchi yugurish va sayr qilish yo'lakchasini barpo etish ishlari qizg'in pallaga kirgan.

Mahalla raisi bilan suhbatlashib turgan paytimiz xonaga ko'zlari yonib turgan yigitlar kirib kelishdi. Ma'lum bo'lishicha, ular mahallaning fidokor va ko'ngilli yoshlar guruhi faollari ekan. Bu yigitlar hududda jamoatchilik nazoratini ta'minlashda profilaktika inspektorlariga kamarbasta bo'lishmoqda. Katta leytenant N.Xolov kelgusida ichki ishlar organlari safida Vatanga xizmat qilishni diliga tukkan yigitlar bilan bugungi patul yo'nalishlarini kelishib oldi.

Katta leytenant Bekzod Qudratov aholi o'rtasida tinchlik-totuvlikni ta'minlash va milliy qadriyatlarni mustahkamlashda mahallada istiqomat qiluvchi tizim faxriylarining boy tajribasiga tayanadi. U iste'fodagi general-mayor Uraimjon Abdug'aniyev va iste'fodagi polkovnik Zarif Norov bilan doimiy aloqada bo'lib, ularning qimmatli maslahatlari va yo'l-yo'riqlarini olib turadi.

Mahallada biror oilaviy nizo chiqsa yoki yo'ldan adashgan yoshlar bo'lsa, birgalikda tarbiyaviy ishlarni olib borishimiz lozim.

15:00. Tushdan so'ng Bekzod Qudratov mahalla raisi va tuman mas'ullari bilan birgalikda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar holidan xabar oldi. Mahallada kam ta'minlangan oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha o'ziga xos tizim yaratilgan. Jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarning uyda o'tirib mehnat qilishi uchun tadbirkorlarga biriktirib qo'yilgan. Mahalla raisining aytishiga qaraganda, ushbu toifadagi oilalardan 10 ga yaqinining xonadoni ta'mirdan chiqarilgan ekan.

16:30 da fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqishga kirishildi. Birinchi murojaat – fuqaro N.M.dan «102» tizimi orqali kelib tushgan. Ariza mazmuniga ko'ra, N.M. «Instagram» ijtimoiy tarmog'ida onlayn kiyim-kechak do'koni ochib, halol tadbirkorlik bilan shug'ullanib kelgan. Biroq boshqa bir noma'lum shaxs uning brendidan foydalanib, sifat-siz mahsulotlarni sotishni yo'lga qo'ygan. Natijada xaridorlar o'rtasida N.M.ga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lib, savdosi yurishmay qolgan. B.Qudratov ushbu kiberfiribgarlik holati bo'yicha zarur materiallarni rasmiylashtirib, ishni kiberxavfsizlik xodimlariga yo'naltirdi.

Ikkinchi murojaat esa mahallada yashovchi M.D.dan tushgan edi. Uy egasini aldab, bir necha oylik ijara haqini to'lamay yurgan ijarachilarning xatti-harakatlariga huquqiy baho berish uchun tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi.

Soat millari 20:00 ni ko'rsatayotgan bo'lsa-da, xizmat tugamaydi. Bu yog'iga tungi xizmatga biriktirilgan xodimlar ishni davom ettiradi.

– To'g'ri, ayni paytda mahallamiz kriminogen vaziyat bo'yicha «sariq» toifada, – deydi katta inspektor Bekzod Qudratov. – Ammo asosiy maqsadimiz, kunni tunga, tunni kunga ulab bo'lsa-da, hamjihatlikda hududni yaqin istiqbolda «yashil» toifaga o'tkazishdir. Buning uchun mahalla yetiligi va jamoatchilik bilan birgalikda bor kuch-g'ayratimizni safarbar etamiz.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Ikrom HASANOV olgan suratlar.

Toshkent shahri.



(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Toshkent shahrida yana bir og'ir voqea yuz berdi. Bosh prokuratura va ichki ishlar organlari ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilda tug'ilgan o'smir ruxsatsiz ravishda «BMW» avtomashinasini haydab, harakat davomida xizmat vazifasini bajarayotgan YPX inspektorini urib yuborgan. Shifokorlarning uch kunlik sa'y-harakatlariga qaramay, inspektor olamdan o'tgan. Surishtiruv materiallarida ushbu voyaga yetmagan shaxs avval ham xavfli harakatlari bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar e'tiboriga tushgani qayd etilgan.

May oyida Qo'qon shahrida ro'y bergan fojia ana shunday holatlardan biri sifatida keng muhokama qilindi. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, maktab o'quvchisi «Malibu-2» mashinasini boshqarib, piyodalar yo'lagidan o'tayotgan uch nafar qizchani urib yuborgan. Oqibatda ulardan biri shifoxonada vafot etgan, ikki nafari og'ir ahvolda qolgan. Ruldagi o'smir haydovchilik huquqiga ega emasligi aniqlangan.

Bu ikki voqea turli hududlarda, turli sharoitlarda sodir bo'lgan, ammo ularni birlashtirib turgan muhim jihat o'sha: rulni haydovchilik huquqiga ega bo'lmagan voyaga yetmagan shaxs boshqargan.

Yo'l harakati xavfsizligi xizmati vakillari keyingi yillarda o'smirlar tomonidan transport vositalarini boshqarish holatlari tez-tez uchrayotganini ta'kidlab kelmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda avtomobilni namoyish qilish, tezlikka qiziqish va xavfli harakatlarni «obro'» belgisi sifatida qabul qilish ayrim yoshlar orasida xavotirli tendensiyaga aylanmoqda.

Muammoning eng og'ir tomoni shundaki, bunday holatlarda xavf faqat ruldagi o'smirning o'ziga emas, balki mutlaqo begona insonlarga ham tahdid soladi. Qo'qonda halok bo'lgan qizaloq ham, Toshkentda hayotdan ko'z yumgan YPX xodimi ham transport vositasini boshqarayotgani yo'q edi, ammo boshqa bir insonning shunday mas'uliyatsizligi ularning taqdiriga ta'sir qildi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, masala faqat o'smirlar mashina boshqarayotganida emas. Asosiy savol boshqa yerda: voyaga yetmagan bola qanday qilib avtomobil kalitiga ega bo'lmoqda? Nega kattalar bunday xavfni oldindan ko'rmaydi yoki jiddiy qabul qilmaydi?

Bu savollar bejiz emas, chunki davlatimiz rahbari 11-iyun kuni o'tkazilgan taqdimotda aynan voyaga yetmagan shaxslarga transport vositasini boshqarishga ruxsat berish holatlari og'ir oqibatlariga sabab bo'layotganini ta'kidlab, bu borada javobgarlikni

kuchaytirish zarurligini qayd etdi. Demak, muammo alohida hodsalar darajasidan chiqib, davlat siyosati darajasida ko'rilayotgan masalaga aylanmoqda.

Endilikda muhokama markazidagi asosiy savol shu: rulga o'tirgan o'smir xavfliroqmi, yoki unga avtomobil kalitini bergan kattalarning beparvoligimi?

Voyaga yetmagan shaxs mashina boshqarishi aksariyat hollarda tasodif emas. Uning ortida kattalar qabul qilgan qaror yoki yo'l qo'ygan beparvolik yotadi. Shuning uchun ham muammoni

ga ham boshqacha yondashish zarurmi?

Javobgarlikni kuchaytirish muhim, ammo tajriba ko'rsatadiki, har qanday huquqiy chora muammoning oqibatiga ta'sir qilishi mumkin, sababiga emas. Voyaga yetmaganlarning transport vositasini boshqarishi bilan bog'liq holatlarga nazar solinsa, yanada tashvishli bir muammo ko'zga tashlanadi – xavfni noto'g'ri baholash madaniyati.

Ko'plab ota-onalar farzandining mashina hayday olishi bilan faxrlanadi. Ayrim hollarda bu hatto

licha hisobga olmasligi mumkin. Avtomobil boshqarishda esa aynan bir necha soniyalik ehtiyotsizlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, voyaga yetmagan shaxsning rul boshqarishi faqat qonunbuzarlik emas. Bu – xavfsizlik tizimidagi bir nechta bo'g'in bir vaqtning o'zida ishlamagani belgisi. Avvalo, oila nazorati ishlamagan bo'ladi. Keyin atrofdagilar bunga munosabat bildirmaydi. Ayrim hollarda esa jamoatchilik ham buni jiddiy xavf sifatida qabul qilmaydi.

Aslida, jamiyatdagi munosabat qonundan ham kuchli profilaktika vositasi bo'lishi mumkin. Agar voyaga yetmagan bolaning avtomobil boshqarishi mahorat emas, balki mas'uliyatsizlik sifatida baholansa, bu holatlar kamayishi mumkin. Bugun esa ba'zi holatlarda aksincha manzara kuzatilmoqda – ijtimoiy tarmoqlarda rul ortidagi o'smirlar videolari tarqatiladi, ular muhokama qilinadi, ayrimlari qiziqish va hatto havas bilan qarshi olinadi.

Shuning uchun ham muammoni faqat huquqiy nuqtayi nazardan ko'rish yetarli emas. Bu masala tarbiya, ijtimoiy mas'uliyat va xavfsizlik madaniyati bilan ham bevosita bog'liq. Qonun jazolaydi, ammo xavfni anglash hissini shakllantirmaydi. Bu vazifa, avvalo, oila, ta'lim muassasalari va jamiyat zimmasida.

So'nggi oylarda mamlakatni larzaga solgan fojialar shu haqiqatni ko'rsatdi: ruldagi voyaga yetmagan shaxs – muammoning sababi emas, natijasi. Asosiy savol avtomobilni kim boshqarganida emas, nega unga bu imkoniyat berilganida.

Har bir holatda kalitni bergan qo'l bitta bo'lishi mumkin, ammo o'sha kalitga yetish imkonini bergan qaror ortida kattalarning mas'uliyati yotadi. Yo'l harakati xavfsizligi haqida gap ketganda, aynan shu mas'uliyatni anglash kelgusida yangi fojialarning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Musulmon ZIYO,
jurnalist.



faqat o'smirlarning harakati bilan izohlash yetarli emas.

Amalda bunday holatlar turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ayrim ota-onalar farzandiga avtomobil boshqarishni erta o'rgata boshlashni ijobiy holat deb hisoblaydi. Ba'zan yopiq hududda yoki qishloq ko'chalarida boshlangan bunday tajriba keyinchalik umumiy foydalanishdagi yo'llarga chiqib ketadi. Boshqa holatlarda esa kattalarning o'zi voyaga yetmagan farzandiga transport vositasini vaqtincha boshqarish uchun ruxsat beradi. Natijada qonun bilan taqiqlangan harakat oddiy holat sifatida qabul qilina boshlaydi.

Shu o'rinda yana bir muhim savol tug'iladi: muammoni hal qilish uchun javobgarlikni kuchaytirish yetarlimi? Yoki voyaga yetmaganlarning rul boshqarishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muhit, tarbiya va xavfsizlik madaniyati-

maqtanish mavzusiga aylanaadi. «O'g'lim 14 yoshida mashina haydaydi», «Farzandim avtomobilni bemalol boshqara oladi», degan gaplarni eshitish mumkin. Vaholanki, bu ko'nikma emas, xavfdir, chunki avtomobil o'yinchoq emas. U bir necha soniya ichida inson hayotiga zomin bo'lishi mumkin bo'lgan yuqori xavf manbayi hisoblanadi. Haydovchilik huquqi uchun yosh cheklovi ham tasodifan belgilanmagan. Bu talab ortida yillar davomida shakllangan xalqaro tajriba, yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha tadqiqotlar va inson psixologiyasi haqidagi ilmiy xulosalar yotadi.

Mutaxassislar qayd etishicha, o'smirlarda xavfni baholash va qaror qabul qilish uchun mas'ul bo'lgan miya faoliyati kattalarnikidan farq qiladi. Shu sababli ular ko'proq tavakkalchilikka moyil, ehtimoliy oqibatlarni esa yetar-

Amaliyot

ILK TAASSUROT

Marg'ilon shahar IIBga ko'zida ishtiyoq porlab turgan ikki nafar qiz kirib keldi. Nazorat-o'tkazish joyida xizmat olib borayotgan xodimlar ularni samimiy kutib olishdi.

– Biz IIV Farg'ona akademiyasi litseyi 1-bosqich o'quvchilari, – dedi qizlardan biri. – Ilk amaliyotni o'tash uchun o'zimiz yashaydigan hudud ichki ishlar bo'limiga yuborishdi.

Bo'lim rahbariyati tomonidan xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, katta leytenant Gulbahor Umarova ularga murabbiy etib biriktirildi.

Gulbahorga bu ziyrak qizlar juda yoqib qoldi. Ulardan birining ismi Feruzaxon, ikkinchisining ismi Shahzodabegim ekan. 10 kun davomida xuddi qardondan opa-singildek, amaliyotni maroq bilan o'tashdi. Eng muhimi, shu muddat ichida qizlar ichki ishlar bo'limi faoliyati bilan yaqindan tanishish bilan birga, sohaga oid dastlabki ko'nikmalarga ham ega bo'lishdi.

– Juda bilimga chanqoq, qiziquvchan, jonsarak qizlar ekan, – deydi katta leytenant

Gulbahor Umarova. – Ularda zamonaviy texnologiyalar va planshetlar bilan ishlashni o'rgatdim. Jamoatchilik komissiyalari va mahalla yetiligi faoliyati bilan tanishtirish maqsadida mahalla fuqarolar yig'inlariga birga bordik. Hamkorlikda ta'lim maskanlari va oromgohlarda huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etdik. Eng muhimi, ular soha faoliyatiga juda katta qiziqish bilan yondashdi va nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlashdi.

– Barcha xodimlar samimiy munosabatda bo'lib, bilimlarni o'rgatishdi, – deydi Shahzodabegim. – Ayniqsa, Gulbahor opa bizga juda yaxshi murabbiylik qildi. Haqiqiy real xizmat jarayonini o'z ko'zimiz bilan ko'rish va unda ishtirok etish imkoniyatini yaratib berdi. Biz G. Umarova bilan doimiy ustoz-shogird tutindik. Ichki ishlar bo'limi biz uchun qardondan dargohga



**Ilm o'qub
amal qilmag'on,
kariz qazib tuxum
solmag'ong'a o'xshar.**

ALISHER NAVOIY

aylanib qoldi. Orzularimiz amalga oshib, IIV Akademiyasiga o'qishga kirsak, kelajakda, albatta, shu yerga kelib ishlaymiz.

– Biz amaliyot jarayonlarini kunlik monitoring qilib turibmiz, – deydi akademik litsey direktori, podpolkovnik Suhrobjon Mirzayev. – O'quvchilarning deyarli barchasi kelajakda o'zini ichki ishlar organlari xodimi sifatida tasavvur qiladi. Shu bois amaliyot ular uchun juda qiziqarli kechyapti. Ular-

ning faolligi uchun murabbiylardan rahmat va minnatdorliklar ham eshityapmiz.

Yana bir litsey o'quvchisi Azizxo'ja G'ofurjonov Farg'ona shahrida istiqomat qilgani bois shahar Ichki ishlar boshqarmasiga amaliyotga bordi.

U migratsiya va personalallashtirish sohasiga qiziqishi borligini ma'lum qilgach, boshqarma rahbariyati migratsiya va personalallashtirish bo'limida amaliyot o'tashiga rozilik berdi. Hozirda u murabbiy etib biriktirilgan kapitan Hamidullo Toshtemirov bilan birga amaliy ko'nikmalarni mukammal o'zlashtirmoqda.

– Amaliyot jarayonida guvoh bo'ldimki, sohaga raqamli texnologiyalar joriy etilgan ekan, – deydi Azizxo'ja.

– Masalan, fuqarolarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida aqlli migratsiya shoxobchalari o'rnatilayotgani e'tiborimni tortdi va shu ishlar-da faol ishtirok etdim. Ushbu tizim aholiga migratsiya xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilaganligi sababli, ko'plab fuqarolar ishini oson bitkazib, rahmat aytib ketishyapti.

**Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.**

Farg'ona viloyati.

Probatsiya xizmati

BANDLIK VA IJTIMOIY KO'MAK

qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishda asosiy omillar

Probatsiya nazoratidagi shaxslarni sog'lom hayotga qaytarish, ularning ijtimoiy hayotga moslashishini ta'minlash va bandligiga ko'maklashish qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan Yakkabog' tumani IIB JXX Probatsiya guruhi tomonidan sohasiy xizmatlar va mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda keng qamrovli profilaktik tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.



Hisobda turgan 394 nafar shaxs bilan manzilli ishlar tashkil etilib, ularning ijtimoiy ahvoli, yashash sharoiti va mavjud muammolari muntazam o'rganilmoqda. Ayniqsa, nazoratdagi xotin-qizlar va yoshlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunarga yo'naltirish va ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish masalalariga alohida e'tibor qaratganmiz. Shu maqsadda mahallalar kesimida alohida ro'yxatlar shakllantirilib, ularning har biriga mas'ullar biriktirilgan.

Xuddi shuningdek, ilgari og'ir turdagi jinoyat sodir etgan mahkumlar bilan profilaktik suhbatlar kuchaytirilib, ular to'g'ri hayot yo'liga qaytishi va qayta jinoyatga qo'l urmasligi uchun zarur chora-tadbirlar ko'rilmog'da.

Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida nazoratdagilardan 109 nafari doimiy ish o'rniga ega bo'ldi. Bu, albatta, ularning ijtimoiy hayotga moslashishida hamda qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishda muhim omil bo'ladi.

Shu bilan birga, tartib va cheklovlarni buzgan

**“ E'tiborli jihati, olib borilayotgan tarbiyaviy va tushuntirish ishlari o'z samarasini bermoqda. Belgi-
langan talablarga amal qilib, xulq-atvorini
ijobiy tomonga o'zgartirgan 106 nafar mah-
kum muddatidan oldin jazodan ozod etildi.
Ularning 9 nafarini ayollar, 27 nafarini esa yoshlar
tashkil etadi.**

11 nafar shaxsga nisbatan qonuniy choralar ko'rilib, jazo turlari og'irrog'iga almashtirildi. Jumladan, «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbiri davomida axloq tuzatish ishlari jazosini o'tash tartibini buzgan va tovlamachilik jinoyatini sodir etgan A.K.ning jazosi ozodlikni cheklashga o'zgartirildi.

Ozodlikni cheklash jazosi talablariga rioya qilmay, yashash joyidan izsiz yo'qolgan mahkum B.I.ga nisbatan esa qidiruv e'lon qilingan edi. Tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida u tuman hududida ushlanib, vaqtincha saqlash hibsxo-nasiga joylashtirildi.

**Husniddin ABDURAHMONOV,
mayor.**

Qashqadaryo viloyati.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi



Bugungi kunda jahon hamjamiyati qatorida, O'zbekiston Respublikasi ham inson hayoti va kelajagiga jiddiy tahdid solayotgan xavfli ijtimoiy illat – giyohvandlik va narkojinoyatchilikka qarshi qat'iy kurash olib bormoqda.

Insonning giyohvandlik qurboniga

aylanishi butun bir oilaning fojiasiga sabab bo'lsa, minglab insonlarning ushbu illat girdobiga tushishi jamiyat uchun jiddiy ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun giyohvandlikka qarshi kurashish har bir fuqaro, oila va jamiyatning umumiy vazifasi hisoblanadi.



Ma'naviyat va ma'rifat darsini videomaterial tarzida ko'rish uchun QR-koddan foydalaning.

GLOBAL TAHDIDNING MILLIY KO'RINISHI

Uzoq yillar davomida Afg'oniston dunyodagi asosiy narkotik vositalar ishlab chiqarish markazlaridan biri bo'lib kelgani Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O'zbekiston uchun ham muayyan xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Mamlakatimizning qulay geografik joylashuvi ayrim jinoiy tuzilmalar tomonidan uni narkotik vositalarni tashish yo'nalishi yoki istiqbolli iste'mol bozori sifatida ko'rishga urinishlariga sabab bo'lmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimizda giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu borada huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mutasaddi tashkilotlar tomonidan keng qamrovli profilaktik, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Narkojinoyatchilikka qarshi kurashish, uning manbalari va tarqalish kanallarini bartaraf etish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olish bo'yicha har kuni tizimli va murosasiz ishlar olib borilmoqda. Bu esa mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash, aholi salomatligini muhofaza qilish hamda kelajak avlodni turli zararli illatlardan asrashga xizmat qilmoqda.

NARKOJINOYATCHILIKNING YANGI QIYOFASI

So'nggi yillarda narkojinoyatchilik shakl va usul jihatidan sezilarli darajada o'zgarib, zamonaviy texnologiyalardan faol foydalanish bosqichiga o'tdi. Ilgari giyohvandlik vositalarining noqonuniy savdosi asosan jinoyatchilar va xaridorlar o'rtasidagi bevosita muloqot orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda raqamli texnologiyalar narkobiznesning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda.

Internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar, anonim messengerlar va elek-

tron to'lov tizimlaridan foydalangan holda tashkil etilayotgan narkasavdo huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Jinoyatchilar zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanib, o'z faoliyatini yashirish va javobgarlikdan qochishga urinmoqda.

YOSHLAR – ENG KATTA XAVF OSTDIDAGI QATLAM

So'nggi yillarda yoshlar o'rtasida narkojinoyatlarga aralashish holatlari kuza-tilayotgani jiddiy tashvish uyg'otmoqda. Bunday holatlarga huquqiy bilim va ko'nikmalarning yetarli emasligi, internet tarmoqlari orqali tarqatilayotgan yolg'on va chalg'ituvchi axborotlar, yengil hayot kechirish va tez boyish haqidagi asossiz tasavvurlar, shuningdek, ayrim hollarda oilaviy nazoratning susligi kabi omillar sabab bo'lmoqda.

Narkobiznes vakillari yoshlarni asosiy nishon sifatida tanlayotgani ham bejiz emas. Chunki yoshlar axborot texnologiyalaridan faol foydalanadi, ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazadi va ba'zan o'z harakatlarining huquqiy hamda ijtimoiy oqibatlarini to'liq baholay olmaydi. Jinoiy guruhlar aynan shu holatdan foydalanib, ularni turli va'dalar va moliyaviy manfaatlar bilan o'z domiga tortishga harakat qiladi.

YANGI ASR VABOSI

Bugungi kunda mutaxassislar tomonidan jiddiy xavotir bilan qayd etilayotgan muammolardan biri sintetik giyohvandlik vositalarining tobora keng tarqalayotganidir. Mazkur moddalar o'zining yuqori ta'sirchanligi va inson salomatligi uchun o'ta xavfli oqibatlar bilan ajralib turadi.

Sintetik giyohvandlik vositalari tabiiy narkotik moddalarga nisbatan bir qator jihatlari bilan xavfli hisoblanadi. Ularning inson organizmiga ta'sir kuchi yuqori bo'lib, qisqa vaqt ichida kuchli ruhiy va jismoniy qaramlikni shakllantirishi mumkin.

Tibbiy kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqda-ki, ayrim sintetik giyohvandlik vositalarini hatto qisqa muddat yoki bir necha marta iste'mol qilishning o'zi ham og'ir ruhiy buzilishlar, asab tizimi faoliyatining izdan chiqishi, xulq-atvordagi salbiy o'zgarishlar hamda hayot uchun xavfli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayrim holatlarda esa bu kabi moddalar nogironlik yoki o'limga ham sabab bo'ladi.

Muammoning yana bir xavfli jihati shundaki, ko'plab yoshlar sintetik giyohvandlik vositalarining haqiqiy mohiyati va oqibatlari haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Turli nomlar, tashqi ko'rinishlar va jozibador ta'riflar ostida tarqatiladigan bunday moddalar ayrim hollarda giyohvandlik vositasi sifatida ham qabul qilinmaydi. Natijada ularning inson organizmi va ruhiyatiga yetkazadigan og'ir zarari kech anglanadi.

MILLAT GENOFONDI HIMOYASI – USTUVOR VAZIFA

Mamlakatimizda aholi salomatligi va millat genofondini muhofaza qilish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan Prezidentimizning 2025-yil 3-noyabr-dagi «Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni tarixiy ahamiyatga ega hujjat bo'ldi.

Farmonda giyohvandlik va narkojinoyatchilikka qarshi kurashishning zamonaviy va kompleks mexanizmlari belgilanib, aholi, ayniqsa, yoshlarni giyohvandlik ta'siridan muhofaza qilish, internet orqali sodir etilayotgan narkojinoyatlarning oldini olish, profilaktika ishlarini kuchaytirish hamda davlat organlari faoliyatining o'zaro hamkorligini yanada takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalar nazarda tutilgan.

Hujjatda internet tarmoqlari orqali tashkil etilayotgan uyushgan narkojinoyatlarga qarshi samarali kurashish, yashirin narkolaboratoriyalarni aniqlash

va bartaraf etish, transmilliy narkokanallar faoliyatiga chek qo'yish hamda yoshlarni jinoiy guruhlar ta'siridan himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bu esa mamlakatimizda giyohvandlik va narkojinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi davlat siyosati darajasida qat'iy nazoratga olinganini, aholi salomatligi va kelajak avlod manfaatlarini himoya qilish borasida izchil choralar amalga oshirilayotganini yaqqol namoyon etadi.

RAQAMLAR ORTIDAGI HAQIQAT

Joriy yilning dastlabki 5 oyi davomida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog'liq 7 262 ta jinoyat aniqlandi. Noqonuniy aylanmadan 2 tonna 328 kilogramdan ortiq giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar musodara qilindi. Shundan kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalarining o'zi 2,5 million donadan oshdi. 15 ta narkolaboratoriya va qo'lda qadoqlash sexlarining noqonuniy faoliyatiga chek qo'yildi. Shuningdek, internet tarmoqlari orqali faoliyat yuritgan bir qator jinoiy guruhlar fosh etildi, minglab fuqarolarning giyohvandlik domiga tushib qolishining oldi olindi.

Ushbu raqamlar ortida qanchadan-qancha inson taqdiri, oilalar tinchligi va yoshlar kelajagi turganini unutmashimiz kerak.

KATTA MAS'ULIYAT

Illatga qarshi kurashishni faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan chambarchas bog'lab bo'lmaydi. Bu borada, avvalo, ota-onalar, ta'lim muassasalari, mahalla fuqarolar yig'inlari, jamoat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Yosh avlodni sog'lom turmush tarzi ruhida tarbiyalash, ularda mustahkam hayotiy pozitsiya va huquqiy ongni shakllantirish giyohvandlikning oldini olishning eng samarali vositalaridan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, har bir pedagog, mahalla faoli va fuqaro jamiyat kelajagiga daxldorlik hissi bilan yashab, giyohvandlikka qarshi kurashning faol ishtirokchisiga aylanishi lozim. Chunki mazkur illatga qarshi kurash faqat davlat organlarining emas, balki har birimizdan faol fuqarolik pozitsiyasi va yuksak mas'uliyatni talab etadi.

**Uchqun ISMAILOV,
IIV TQD JQX boshqarma
boshlig'i o'rinbosari,
podpolkovnik.**

Qoraqalpoq tilida



Rus tilida



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Xorazm tajribasi

XAVFSIZ MAHALLA:
osoyishtalik ortidagi mas'uliyat

Yangiariq tumanidagi «Oqmachit» mahallasi ahli tongni odatdagidek qarshi oladi. Kimdir ishga shoshgan, kimdir farzandini maktabga kuzatgan... Bu osoyishtalik ortida esa kundalik tinimsiz mehnat, hamkorlik va yuksak mas'uliyat yotadi.

Bugungi kunda mahallada 555 ta xonadon bo'lib, ulardagi 670 ta oilada 3030 nafar aholi istiqomat qiladi. Hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktika katta inspektori, podpolkovnik Bahodir Qalandarov xizmat olib bormoqda. Har kuni ertalab xizmatni bevosita mahalladan boshlaydigan bu xodim dastlab mahalla yetiligi a'zolari bilan uchrashib, hududdagi vaziyatni muhokama qiladi. Shundan so'ng onlayn yo'riqnomada qatnashib, kunlik vazifalar asosida ishlarni tashkil etadi.

NATIJA RAQAMLARDA KO'RINADI

«Oqmachit» mahallasida jinoyatchilik yildan-yilga kamayib bormoqda. 2023-yilda hududda 4 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2024-yilda 3 ta, 2025-yilda esa 1 ta jinoyat qayd qilingan. Eng muhimi, 2026-yilning

bugungi kuniga qadar birorta ham jinoyat ro'y bermagan. Bu natijalarga erishishda mahalla yetiligi, aholi bilan doimiy muloqot va profilaktik tadbirlar muhim o'rin tutmoqda. Telegram platformasida tashkil etilgan «Oqmachit mahalla fuqarolari» guruhi orqali kishilarga kiberjinoatlardan ehtiyot bo'lish, mulk xavfsizligi, voyaga yetmaganlar nazorati va boshqa dolzarb masalalar bo'yicha muntazam tavsiyalar berib boriladi.

BIR INSON TAQDIRI – BIR MAHALLA YUTUG'I

Profilaktika inspektori faoliyatida odamlar taqdiri bilan bog'liq voqealar ko'p uchraydi. Masalan, mahallada yashovchi I-guruh nogironi Gulnora Jumaniyozovaning holidan muntazam xabar olinadi. Unga oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan yordam ko'rsatilib, gaz ballonlarini xonadoniga yetkazib berishda ham amaliy ko'mak beriladi.

– Imkoniyati cheklangan fuqarolar e'tibordan chetda qolmasligi kerak, – deydi Bahodir Qalandarov.

HAR MUAMMONING YECHIMI BOR

Mahallada yashovchi J.A. uzoq vaqt davomida spirtli ichimlikka ruju qo'yib, kunlab uyidan



chiqmay qolgan. Profilaktika inspektori uning oila a'zolari bilan bir necha bor suhbatlashib, muammoning sabablarini o'rgandi. Natijada fuqaroni nar-kologiya dispanserida davolanishga ko'ndirib, bu borada unga ko'maklashdi.

Bugun J.A. davolanish kursini muvaffaqiyatli yakunlab, sog'lom turmush tarziga qayt-

gan. Oila a'zolari ham bu o'zgarishdan juda mamnun.

MAHALLA YETILIGI – HAMKORLIK MAKTABI

«Oqmachit» mahallasida muammolarni hal etishda mahalla yetiligi muhim rol o'ynaydi. Har hafta mahalla faollari, nuroniylar, ko'chaboshilar va

mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirokida yig'ilishlar o'tkazilib, mavjud muammolar muhokama qilinadi. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlash, ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash, oilaviy nizolarni bartaraf etish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida hamkorlik o'z samarasini bermoqda.

MUROJAATLAR SONI HAM KAMAYMOQDA

Mahallada aholi murojaatlari kamayib borayotgani ham oqilona tashkillashtirilgan ishlarning natijasidir. 2025-yilda fuqarolardan 157 ta murojaat kelib tushgan bo'lsa, 2026-yilning may oyiga qadar bu ko'rsatkich 38 tani tashkil etdi. Bu esa muammolar joyida hal qilinayotgani va fuqarolarning davlat idoralariga bo'lgan ishonchi ortib borayotganidan dalolat.

ENG OLIY MUKOFOT

– Fuqaroning samimiy «rahmat» degan so'zi biz uchun eng katta mukofot, – deydi podpolkovnik Bahodir Qalandarov.

Darhaqiqat, «Oqmachit» mahallasida amalga oshirilayotgan ishlar «Xavfsiz mahalla» tamoyilining amaliy ifodasidir. Inson qadri, ijtimoiy profilaktika va hamkorlikka tayangan ushbu tajriba bugun Xorazm viloyatida xavfsiz hamda osoyishta muhitni ta'minlash yo'lidagi samarali model sifatida namoyon bo'lmoqda.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

Ayol va jamiyat

QALBLARGA
YO'L TOPIB

Huquq-tartibot tizimi ko'pchilikka qat'iyat va intizomdan iboratdek ko'rinsa-da, uning inson taqdiri bilan bog'liq shunday jabhalari borki, bu yerda kasbiy mahorat bilan bir qatorda, mehr, sabr va nozik qalb ham talab etiladi. Ana shunday fazilatlarini o'zida mujassam etgan fidoyilardan biri Namangan davlat universiteti profilaktika inspektori, «Kasb a'lochisi» ko'krak nishoni sohibi, leytenant Lolaxon Nizomovadir.

Uning xizmat faoliyati 2007-yilda Mingbuloq tumani IIB huzuridagi qo'riqlash bo'linmasida safdor xodimlikdan boshlangan. Yosh qiz uchun bu soha oson emasdi. Biroq u qiyinchiliklardan cho'chimadi, aksincha, har bir sinovni tajriba va mahoratni oshirish maktabi deb bildi.

Tinimsiz mehnat, bilimga chanqoqlik va o'z ustida ishlash natijasida 2010-yilda IIV Akademiyasining Serjantlar tarkibini tayyorlash bo'yicha oliy kurslarida tahsil olgan Lolaxon keyinchalik Akademiyani muvaffaqiyatli tamomlab, oliy ma'lumotli huquqshunos sifatida xizmatini davom ettirdi. Namangan viloyati IIB JXX HPB Voyaga yetmagan-

larga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi inspektor-ijtimoiy xodimi o'laroq, adashgan o'smirlarni to'g'ri yo'lga boshlash, ularning qalbidagi og'riq va iztiroblarni anglash, oila va jamiyat bag'riga qaytarish uning kundalik vazifasiga aylandi.

– Har bir bolaning qalbiga yo'l topish uchun, avvalo, uni eshitish kerak, – deydi lavhamiz qahramoni. – Ba'zan bir og'iz mehrli so'z, samimiy suhbat inson taqdirini o'zgartirishi mumkin. Zero, bolalar bilan ishlashda mehr va ishonch katta ahamiyatga ega. Hayotda adashgan yoshlarni to'g'ri yo'lga qaytarish – biz uchun eng katta yutuq.

Bugun Lolaxon Nizomovanning mehnat



faoliyati talabalar hayoti bilan chambarchas bog'langan. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, huquqiy savodxonlikni oshirish, turli salbiy ta'sirlardan asrash uning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Universitet jamoasi va talabalar orasida u nafaqat talabchan xodim, balki maslahatchi, suhbatdosh va g'amxo'r inson sifatida ham hurmat qozongan. Chunki u har bir yoshning orzusi, intilishi va muammosiga befarq qaramaydi. Hamkasblari ham uning kasbiga bo'lgan sadoqati, yuksak mas'uliyati va yoshlar bilan muloqot qilish madaniyatini alohi-

da e'tirof etishadi. Ayniqsa, har qanday vaziyatda ham inson qalbiga yo'l topa bilishi uning eng muhim fazilatlaridan biri sifatida qadrlanadi.

Yoshlar qalbiga ezgulik urug'ini qadayotgan, ularni ma'rifat sari boshlayotgan insonlar har qanday e'tirofga munosibdir. Zero, yoshlar taqdiriga daxldor har bir xayrli ish, har bir ezgu amal kelajak poydevoriga qo'yilgan g'ishtdir.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Jazoni ijro etish tizimida

IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti tomonidan Buxoro shahridagi Varnet batanika bog'ida navbatdagi ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. «Sog'lom oila – barqaror xizmat, ahil jamoa» oyiligi doirasida o'tkazilgan tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad – xodimlar va ularning oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro mehr-oqibat, hurmat va ishonchni mustahkamlash, sog'lom oilaviy muhitni qaror toptirish hamda jamoalarda hamjihatlik va ruhiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat edi.

SOG'LOM OILA – BARQAROR XIZMAT, AHIL JAMOA



Tadbirda Buxoro davlat universitetining malakali psixolog mutaxassislari jazoni ijro etish koloniyalari xodimlari hamda ularning turmush o'rtog'lar uchun maxsus trening mashg'ulotlari o'tkazish-

di. Mashg'ulotlar davomida oilaviy munosabatlarda samarali muloqotni yo'lga qo'yish, o'zaro ishonchni kuchaytirish, nizolarni tinch hal etish, farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati kabi

muhim mavzular atroflicha muhokama qilindi.

Mutaxassislardan tomonidan ishtirokchilarga stress holatlarini boshqarish, oilada sog'lom psixologik muhitni shakllantirish va ruhiy sa-

lomatlikni asrash bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi. Treninglar interaktiv usullarda tashkil etildi.

Tadbirning amaliy qismida esa oilalarni yanada jipslash-

deydi JIED Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Muhayyo Zakirova. – Oilada mehr-oqibat va o'zaro tushunish

ror toptirish maqsadida «Oila bog'i» loyihasiga start berildi. Unda xodimlar o'z turmush o'rtog'lar bilan birgalikda gul va manzarali daraxt ko'chatlarini ekib, yangi tashabbusga tamol toshini qo'yishdi.

Loyiha doirasida har bir oila muntazam ravishda ko'chat ekish va parvarishlash orqali nafaqat atrof-muhit obodonchiligiga hissa qo'shadi, balki oila a'zolari o'rtasidagi hamjihatlik va birdamlikni yanada mustahkamlaydi. Bu esa kelgusida «Oila bog'i»ni ezgu an'analar maskaniga aylantirishga xizmat qiladi.

— Bugungi kunda har bir xodimning xizmat samaradorligi, avvalo, uning oilasidagi tinchlik va xotirjamlik bilan chambarchas bog'liq –

muhiti mustahkam bo'lsa, inson har qanday vazifani ishonch bilan bajara oladi. Shu bois «Sog'lom oila – barqaror xizmat, ahil jamoa» oyiligi doirasida tashkil etilayotgan tadbirlar orqali xodimlarimiz va ularning oila a'zolariga psixologik ko'mak berish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash hamda jamoalarda sog'lom muhitni shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Darhaqiqat, sog'lom va ahil oila — samarali xizmatning ishonchli garovidir. Shu bois tizimda oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bunday tadbirlar izchil davom ettirilmoqda.

Xadicha O'TAYEVA,
kapitan.

Chekka hududlarda

OVUL AHLI O'Z INSPEKTORIGA ISHONADI

Ba'zan inson hayotini birgina qaror o'zgartirib yuboradi. Akmal Murodullayev oliy ta'lim muassasasini tamomlagach, bir muddat tadbirkorlik bilan shug'ullandi. Biroq otasining «O'g'lim, seni el-yurt osoyishtaligi uchun xizmat qiladigan mard yigitlar safida ko'rishni istardim», – degan gapi unga hech tinchlik bermasdi. Nihoyat padari buzrukvorining niyatini ushaltirishga ahd qildi.

Yosh xodim o'zi hech qachon borib ko'rmagan, olis va keng sahro bag'ridagi Uchquduq tumaniga yuborildi. Xizmatdagi qiyinchiliklarga, tabiat injiqliklariga qaramay, lavhamiz qahramoni ortga qaytmadi. Ilgari faqat oilasi uchun mas'ul bo'lgan bu yigit endi butun bir ovul ahlining tinchligi va xavfsizligi uchun javobgar edi. Faoliyati davomida kimdandir sabr va matonatni, kimdandir muomala madaniyatini, yana kimdandir huquqiy bilim va kasb sirlarini o'zlashtirdi.

Ayni paytda Tomdi tumanidagi «Sharq» ovul fuqarolar yig'ini profilaktika inspektori sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu yerda ish boshla-

gan payti hudud kriminogen vaziyat murakkabligi bois «qizil» toifada edi. Ovul yettiligining boshqa a'zolari, nuroniylar va faollar bilan hamkorlikda olib borilgan manzilli profilaktik tadbirlar natijasida vaziyat yaxshilandi.

Bugungi kunda hudud «sariq» toifaga o'tkazilgan. Keyingi marra – yashil toifa. «Sharq» ovul fuqarolar yig'ini tarkibiga «Qizilquduq», «Aqtaqir», «Rohat» ovullari hamda bir nechta dalahovli kiradi. Qariyb 6 ming nafar turli millat vakillari istiqomat qiladi. Shuning uchun aholi bilan til topishish oson emas. Ammo leytenant Akmal Murodullayev ularning tili va urf-odatlarini o'rgangani



uchun buning uddasidan chiqyapti.

Aholi asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Yozning jazirama issig'i, qishning qahraton sovug'i, aholi yashash manzillarining bir-biridan uzoqligiga qaramay, inspektor har bir xonadon holidan xabar olishga intiladi. Chunki yaxshi biladiki, tinchlik-osoyishtalik, avvalo, inson dardini eshitishdan boshlanadi.

Mavjud ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni o'rganish, yoshlar bandligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning

oldini olish, notinch, nizoli oilalar bilan ishlash kundalik vazifalarining ajralmas qismiga aylangani bois uni jo'yali maslahat beradigan va ko'mak qo'lini cho'za oladigan fidoyi inson sifatida hurmat qilishadi. Bir so'z bilan aytganda, ovul ahli o'z inspektoriga ishonishadi, suyanishadi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Yoshlar — kelajak bunyodkori

ERTAMIZ ISHONCHLI QO'LLARDA

Katta leytenant Mavludaxon Salohiddinova zimmasiga yuklangan vazifalarga sidqidildan yondashib, osoyishtalik yo'lida astoydil xizmat qilayotgan yosh xodimlardan biri.



Mavludaxon ayni paytda Jalaquduq tumani IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limining katta inspektori lavozimida. Asosiy vazifasi — xotin-qizlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, tazyiq va zo'ravonlik qurboniga aylangan ayollarni aniqlab, himoya orderi orqali davlat muhofazasiga olish, notinch oilalar bilan muntazam profilaktik ishlar o'tkazishdan iborat. Shuningdek, alohida toifadagi xotin-qizlar bilan yakka tartibda ishlash, hamkor tashkilotlar bilan birgalikda targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish ham uning kundalik vazifalari sirasiga kiradi.

E'tiborli jihati, joriy yilning o'tgan davrida tumanda xotin-qizlar tomonidan jinoyat sodir etilmagani profilaktika ishlari samarasini ko'rsatadi. Bunga qadar aniqlangan jinoyatlar asosan «Bozorbooshi»,

«Namuna» va «So'fiqishloq» mahallalarida uchragani esa shu hududlarda profilaktik tadbirlarni ko'proq tashkil etish, fuqarolarning moddiy va ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda amaliy yordam berishni yo'lga qo'yish muhimligini ko'rsatmoqda.

Tumanda 60 ta mahalla fuqarolar yig'ini bo'lib, aholi soni 203400 nafarni tashkil etadi. Shundan 97740 nafari xotin-qizlar. Ular orasida jinoyatchilik yuzaga kelishining asosiy sabablaridan biri sifatida ishsizlik omili alohida o'rin tutadi. Shu bois xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanganlarni davlat himoyasiga olish hamda profilaktik-targ'ibot ishlarini kuchaytirish orqali jinoyatchilikning oldini olishga erishilmoqda.

Mavludaxon Salohiddinova bilan suhbatda undan xizmat faoliyatining o'ziga xos jihatlari haqida so'radik.

— Xotin-qizlar bilan ishlashdagi eng og'ir jihat ularni turli salbiy holatlardan asrash, jinoyatga yetaklovchi omillarni barvaqt aniqlashdir, — deydi u. — Ayniqsa, voyaga yetmagan qizlar bilan bog'liq muammolar, erta tug'uruq holatlari ushbu yo'nalishdagi eng og'riqli masalalardan sanaladi.

Yosh bo'lishiga qaramay, zimmasiga ulkan vazifani olgan bo'lsa-da, Mavludaxon kasbidan sira nolimaydi. Aksincha, shu sohada xizmat qilayotganidan faxrlanadi.

Xulosa shuki, ichki ishlar organlarida ana shunday mas'uliyatli, fidoyi va yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan xizmat qilayotgan yoshlar bor ekan, ertangi kunimiz ishonchli qo'llarda ekaniga shubha yo'q.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Xizmatlarda

DUAL TIZIM -
KINOLOGIYADA YANGI BOSQICH

Jizzax viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasida xizmat itlarini tayyorlash bo'yicha yo'lga qo'yilgan «Dual tizim» amaliyoti respublika miqyosida ham ilg'or tajriba sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur tizimning asosiy maqsadi — bir bosh xizmat itida bir vaqtning o'zida ikki yo'nalish bo'yicha mukammal ko'nikmalarni shakllantirish, xizmat samaradorligini oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etishdan iborat.

Avvallari xizmat itlari asosan bir yo'nalish — iz-qidiruv, giyohvandlik moddalarini aniqlash yoki antiterror vazifalari bo'yicha alohida tayyorlanar edi. Bu esa qo'shimcha vaqt, moddiy resurs va ko'proq xizmat itlarini talab qilardi. «Dual tizim» esa ushbu jarayonni tubdan o'zgartirib, bir xizmat itining imkoniyatlarini ikki kara oshirishga xizmat qilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, «Juji» laqabli xizmat iti yaqinda o'tkazilgan o'quv-taktik mashg'ulotlarida 3 kilometrdan ortiq masofada gumonlanuvchi qoldirgan izni yo'qotmasdan aniqlab bergan. «Zarya» esa transport vositasiga yashirilgan

giyohvandlik moddalarini bir necha daqiqa ichida topib, mutaxassislar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Hozirgi kunda viloyat hududida 20 nafar kinolog xodim va 22 bosh maxsus tayyorgarlikdan o'tgan xizmat itlari kunduzgi va tungi xizmatga jalb qilingan. Ular tezkor-tergov guruhlar, blok postlar, yo'l-patrul xizmati hamda piyoda patrul yo'nalishlarida samarali xizmat qilmoqda.

Joriy yilning dastlabki to'rt oyida kinologlar 133 marotaba voqea joyiga chiqishib, 51 ta jinoyatning «issiq izida» fosh etilishiga hissa qo'shishdi. Xususan, 17 ta o'g'irlik, 30 ta giyohvandlik bilan



bog'liq jinoyat, 4 ta ov quroli bilan bog'liq holatlar aniqlangan. Xizmat itlari yordamida bir kilogramdan ortiq giyohvandlik moddalari fosh etilgani esa kinologiya xizmatining naqadar muhim ekanini yana bir bor isbotladi. Bu jarayonlarda safdor Qobil Qo'shnazarov giyohvandlik moddalarini qidirib topish

yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan «Ada» laqabli xizmat iti bilan 7 yil, safdor Akmal Eshonqulov iz-qidiruv yo'nalishi bo'yicha tayyorlangan «Rita» laqabli xizmat iti bilan o'g'irlik jinoyatlarini fosh qilishda 9 yildan beri namunali xizmat qilib kelishyapti.

Bugun viloyat kinologlari va ularning sodiq xizmat itlari

jamoat xavfsizligini ta'minlash, fuqarolar osoyishtaligini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda haqiqiy ishonchli safdoshga aylanmoqda. «Dual tizim» esa bu yo'nalishdagi muhim qadamlardan biri.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



ICHKI ISHLAR ORGANLARINING MUZAFFAR XODIMLARI



Toshkent viloyati IIBB TVBSO xodimi, leytenant

Muzaffarbek To'raboyev

Dzyudo bo'yicha jahon chempioni. 2024-yilgi Yozgi Olimpiada o'yinlarida bronza medalni qo'lga kiritgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi. Islom Birdamligi o'yinlarining ikki karra g'olibi. «Do'stlik» ordeni sohibi.



Abdumalik Xalokov

Boks bo'yicha 2024-yilgi Parij Olimpiadasi g'olibi, ikki karra jahon chempioni. Ko'rsatgan yuksak natijalari uchun «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoni bilan taqdirlangan A. Xalokov havaskor boksda ham muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. **Toshkent shahar IIBB xodimi, kapitan.**



Isroil Madrimov

Boks bo'yicha professional va havaskor yo'nalishlarda yuksak natijalarga erishgan jahon hamda Osiyo chempioni, Osiyo o'yinlari g'olibi. **Toshkent viloyati IIBB TVBSO xodimi, mayor.**



Lazizbek Mullajonov

Farg'ona viloyati IIB xodimi, kapitan.

Boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi, harbiy xizmatchilar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionati g'olibi, havaskorlar o'rtasidagi xalqaro va milliy turnirlarning ko'p karra chempioni va sovrindori. 2024-yilgi Yozgi Olimpiada o'yinlari g'olibi. «Kelajak bunyodkori» medali sohibi, «O'zbekiston iftixori» faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

” Sport – bu faqat g'alaba emas, bu intizom, iroda va sadoqatdir.



«Sport» – g'alaba shijoati, tarixiy zafarlar va eng so'nggi yangiliklar olami endi bitta ilovada!

Ilova jahon va xalqaro arenalar-da Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarayotgan matonatli ichki ishlar organlari xodimlari haqida hikoya qiladi. Unda tizimdagi sport yangiliklari, erishilayotgan yutuqlar, xodimlarning jismoniy va jangovar



shayligini oshirishga qaratilayotgan keng ko'lamli islohotlar o'z aksini topgan. Sahfalarimizni muntazam o'qib borish orqali siz nafaqat osoyishtalik posbonlarining zafarli yo'lidan boxabar bo'lasiz, balki haqiqiy matonat va g'alaba ruhidan kuch olasiz.

Ilovamizni o'qib boring va ichki ishlar organlarining sport olamidagi eng yorqin zafarlarga guvoh bo'ling!

INTIZOM VA MATONAT MAKTABI

Ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini oshirish, shaxsiy tarkib o'rtasida sport ommaviyligini ta'minlash va bu borada zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Har yili stol tennisi, futbol, voleybol, yengil atletika, xizmat ko'pkurashi, o'q otish, shaxmat, qo'l jangi, sambo, kurash, erkin va yunon-rum kurashi kabi 12 ta sport turi bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasi hamda 3 ta sport turi bo'yicha ayollar o'rtasida «To'maris izdoshlari» bellashuvi va voleybol turniri, erkaklar o'rtasida mini-futbol bo'yicha vazirlik birinчилиги o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan.

Joriy yilning o'tgan davrida stol tennisi, futbol, xizmat ko'pkurashi, o'q otish, qo'l jangi bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqalari o'tkazildi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 25-avgustdagi 536-sonli qaroriga muvofiq, xodimlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun 353 ta sport majmuasidan bepul foydalanish imkoniyati yaratildi. Natijada bugungi kunda jami 942 ta sport obyektida xodimlar ishtirokida mashg'ulotlar tashkil etilmoqda.

Ayni paytda seshanba va shanba kunlari muntazam o'tkazib kelinayotgan mashg'ulotlariga maxsus bo'linmalar, sport federatsiya (assotsiatsiya)larining malakali mutaxassislari ham jalb qilinmoqda.

Keyingi vaqtlarda jismoniy tayyorgarlik tizimiga zamonaviy

texnologiyalar joriy etildi. Xususan, mashg'ulotlarga qatnashishni nazorat qilish maqsadida «E-davomat» tizimi ishga tushirildi. Mazkur tizim orqali har bir xodim, bo'linma va hududlar kesimida, real vaqt rejimida monitoring yuritilmoqda.

YUKSAK NATIJALAR
Hozirda xodimlarning mingdan ortig'i sport bilan professional



vazirlik terma jamoasi faxrli 1-o'rinni egalladi. Bundan tashqari, 108 nafar xodim 14 ta sport turi bo'yicha 43 ta oltin, 26 ta kumush va 48 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.

**HAMKORLIK
VA OMMAVIYLIK**

Sportni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston voleybol federatsiyasi hamda Aralash jang san'ati (MMA) assotsiatsiyasi IIV mas'ul-ligiga o'tkazilgan.

Voleybol: hududiy federatsiyalar soni 14 taga yetkazildi. Vazirlik huzurida «Humo», «Road patrol» va «Akademiy» klublari tashkil etildi. «Road patrol» jamoasi xalqaro turnir va O'zbekiston chempionatida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

MMA: IIV «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida va

14 ta hududda zamonaviy bazalar yaratildi. Bahrayndagi III Yoshlar Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz munosib ishtirok etdi.

Yoshlar o'rtasidagi ommaviylik: «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasidagi «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasida voleybol bo'yicha o'tgan yili 800 mingdan ziyod yoshlar qatnashgan bo'lsa, bu yil 1 million 100 mingga yaqin yigit-qizlar ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tdi.

Amalg oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash hamda xizmat sa-maradorligini oshirishga hissa qo'shmoqda.

Jasur TOG'AYEV,
mayor.

SHOHSUPADA — AKADEMIYA SPORTCHILARI

IIV Akademiyasida kursantlarning jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Xususan, zamonaviy suzish havzasida kursantlar muntazam ravishda mashg'ulotlarda ishtirok etadi. Tizimli va kuchaytirilgan mashg'ulotlar, tinimsiz mehnat samarasi o'laroq, yaqinda bo'lib o'tgan nufuzli sport bellashuvida vakillarimiz faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritishdi.



Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida suzish bo'yicha turdosh oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'tkazilgan musobaqada Davlat xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyalari, Jamoat xavfsizligi universiteti, Bojxona, Quruqlikdagi qo'shinlar, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutlari hamda mezbon jamoa vakillari ishtirok etdi. Murosasiz o'tgan musobaqada IIV Akademiyasi kursantlari eng yuqori natijalarni qayd etishdi. Jumladan, 100 metr masofaga erkin usulda suzish bo'yicha yakkalik bahslarida O'Imasbek Baxtiyorov

59 soniya natija bilan birinchi o'ringa sazovor bo'lgan bo'lsa, 4x50 metrik jamoaviy estafetada ham kursantlarimizga teng keladigan raqib topilmadi. Har ikkala yo'nalishda Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi hamda Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti kursantlari marraga birin-ketin yetib kelib, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni qo'lga kiritishdi. Musobaqa yakuniga ko'ra, yuksak mahorat ko'rsatgan g'olib va sovrindorlar medal, diplom hamda kubok bilan taqdirlandi.

Jamshid XOLOV,
mayor.

XIZMATDA MAS'ULIYATLI, SPORTDA MAHORATLI

Samarqand viloyati IIB Migratsiya va personalashtirish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Mohina Yunusova – sambo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi, dzyudo bo'yicha sport ustasi va yuqori salohiyatli rahbar xodimdir. U 2023-yilda Qozog'istonda sambo bo'yicha sport ustalari o'rtasidagi Jahon chempionatida oltin medalni qo'lga

kiritib, jahon chempioni bo'ldi va «To'maris izdoshlari» musobaqasida tengsiz deb topildi. 2024-yilda IIV Kasbiy olimpiadasida «Eng yaxshi katta ofitser» nominatsiyasi g'olibi bo'lib, «Kasb a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Podpolkovnik M. Yunusova o'z muvaffaqiyatlarini 2025-yilda ham davom ettirib, jangovar sambo bo'yicha O'zbekiston chempionatida 2-o'rinni, qo'l jangi bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» hamda «Men g'olib» marafonida 3-o'rinni band etdi. Uning faoliyati xizmatdagi temir intizom va sportdagi yuksak professionallikning yorqin namunasidir.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



MAYDONDA TOBLANGAN SAFDOR



Xalqaro sport maydonlarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelayotgan yoshlar safida bo'lgan Xorazm viloyati IIB MMI va KBTX J va JTB kichik inspektori, safdor Maftuna Raximovaning voleybolga qiziqishi 6-sinfda boshlanib, ilk murabbiyi Sanamjon Primova va, keyinchalik esa Gulnoza Xojaqovalardan sa-

boq olib, mahoratini oshirdi. Urganch Olimpiya za-xiralari kolleji hamda Urganch davlat universitetida tahsil olgan ushbu sportchi O'zbekiston va Osiyo chempionatlarida hamda Osiyo chempioni degan sharaflini unvonga sazovor bo'ldi. Sport maydonlarida toblangan intizom tufayli 2024-yil 16-oktabrdan Ichki ishlar vazirligi tizimida o'z xizmat faoliyatini boshlagan safdor M.Raximova bugungi kunda hamkasblari jamoasida yuksak mas'uliyat bilan xizmat qilib, sport bilan shug'ullanishni orzu qilayotgan yosh qizlar uchun namuna bo'lib kelmoqda.

Xorazm viloyati.

Nilufar JABBOROVA,
o'z muxbirimiz.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.

HAQIQIY IBRAT NAMUNASI

Olim Normurodov Qarshi tumurakkab usullarini o'rgandi. Xizmat va sportni uyg'unlikda olib borgan leytenant Olim Normurodov o'tgan yillar davomida qo'l jangi bo'yicha mamlakat, qit'a va jahon chempionatlarida munosib ishtirok etib, o'z vazn toifasida 12 karra chempionlik shohsupasiga ko'tarildi. Bugungi kunda viloyat IIB TVBSO 3-ishg'ol qilish guruhi komandiri lavozimida xizmat qilayotgan, hamkasblari o'rtasida «temir xarakter sohibi» va yoshlarga haqiqiy ibrat namunasi sifatida e'tirof etiladigan ushbu xodim tinimsiz mehnat,



qat'iy intizom va kuchli iroda evaziga yuksak g'alabalarga erishib kelmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

«SPORT – MENING HAYOTIM»

Navoiy viloyati IIB TVBSO katta mutaxassisi, kichik serjant Xo'jaqul Ergashev 12 yoshidan buyon sport bilan shug'ullanib, murabbiyi — xalqaro toifadagi sport ustasi San'at Rahimov qo'l ostida MMA, jangovar sambo va kikkboxsing yo'nalish-

larida o'z mahoratini oshirib kelmoqda. Intizomi va shijoati bilan ajralib turuvchi ushbu xodim 2023-yilda MMA bo'yicha Osiyo chempionligini qo'lga kiritdi, 2024-yilda Qozog'istonda jangovar sambo bo'yicha o'tkazilgan musobaqada 3-o'rinni egalladi hamda 2025-yilda Olmota shahridagi MMA professional janglari-da munosib ishtirok etdi. Shuningdek, IIV kubogi musobaqalarida qo'l jangi bo'yicha 2-o'rinni egallagan kichik serjant X.Ergashev bugungi kunda ham sportda, ham xizmat faoliyatida istiqbolli yosh mutaxassis xodim sifatida e'tirof etilmoqda.



WORKOUTDAN XALQARO ARENALARGACHA

Farg'ona viloyati IIB sportni rivojlantirish hamda xodimlar uchun eng zamonaviy sport zallari va workout maydonchalari barpo etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tizimli tayyorgarliklar natijasida viloyat IIB sportchilar jamoasi joriy yilning 1–4-iyun kunlari Andijon viloyatida o'tkazilgan qo'l jangi bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqasida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Shuningdek, xotin-qizlar o'rtasidagi «Ayollar sport olimpiadasi»da viloyat IIB xodimlari yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa, voleybol bo'yicha o'tkazilgan «Boshqarma boshlig'i kubogi»da Toshloq tumani IIB terma jamoasi eng yuqori natijani ko'rsatdi. Shaxsiy yutuqlar borasida viloyat IIB TVBSO



o't ochib qo'llash guruhi katta mutaxassisi, katta serjant Nizomiddin Isroilov joriy yilning fevral oyida Buxoroda o'tkazilgan «ATF 28-championship» xalqaro musobaqasida 77 kg vazn toifasida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'ona viloyati.

CHEMPIONLAR ULG'AYAYOTGAN XONADON



Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX PPX inspektori, katta serjant Tursinbay Abdirasuliyev maktab davridanoq qo'l jangi va sambo bilan shug'ullanib, vazirlik miqyosidagi musobaqalarda 15 dan ortiq medallar sohibi bo'lgan va fidokorona xizmati

uchun «Jasorat» medali bilan taqdirlangan.

Bugungi kunda u turmush o'rtog'i Difuza Ajimova bilan birgalikda oilasida haqiqiy sport muhitini yaratgan. Ularning to'rt farzandi – 10-sinf o'quvchisi Elbrus futbol bo'yicha sport

ustaligiga nomzod darajasiga erishgan bo'lsa, qizi – voleybol bo'yicha U-15 Qoraqalpog'iston o'smirlar terma jamoasi a'zosi Biybijamal Idaytullayeva murabbiy A.Kazakov qo'l ostida voleybol bilan shug'ullanib, shu yil aprel oyida Xorazmdagi musobaqada jamoasi bilan 3-o'rinni egalladi. Kenja farzand, 2-sinf o'quvchisi Pamir esa gimnastika bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi ochiq turnirida faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Katta serjant T.Abdirasuliyevning farzandlari bugungi kunda otasining yo'lidan borib, xizmat va sportda yuksak martalarni zabt etishni maqsad qilgan.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

OTA ORZUSINING RO'YOBI

Namangan viloyati IIB Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika boshqarmasi kanselyariya boshlig'i, safdor Marjona Mansurova murabbiylari Abdulloh Salimov va Rashidjon Paxriddinovlar qo'l ostida karatening WKF turi bo'yicha professional shug'ullanib, sport ustasi hamda qora belbog' sohibasiga aylandi. Uning g'alabalar seriyasi 2022-yilda O'zbekiston kubogi g'olibliqi, 2023-yilda O'zbekiston va Markaziy Osiyo chempionatlari oltin medallari bilan boshlanib, 2024-yilda O'zbekiston kubogi hamda O'zbekiston chempionatining ikki yosh toifasida mutlaq chempionligi bilan davom etdi. Safdor M.Mansurova 2025-yilda Qirg'izistondagi «Bishkek Open» xalqaro turniri, O'zbekiston kubogi va mamlakat chempionatida yana oltin medallarni qo'lga kiritdi. Yaqinda esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi qo'l jangi musobaqasida viloyat IIB sha'nini himoya qilib, faxrli 2-o'rinni egalladi va bugungi kunda ota-onasi hamda hamkasblari ishonchini oqlab, sportda ham, xizmatda ham yuksak namuna ko'rsatib kelmoqda.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



Andijon viloyati IIB Maxsus operatsiyalarni muvofiqlashtirish boshqarmasi guruh komandiri, leytenant Islomjon Zaynobiddinov xizmat faoliyati bilan bir qatorda, sport sohasida ham yuksak natijalarga erishib kelmoqda. Olti yildan buyon sportning qo'l jangi turi bilan professional darajada shug'ullanib 2022-yilda O'zbekiston chempioni, 2023-yilda Jahon chempioni hamda 2025-yilda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasidagi respublika chempionatida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Bugungi kunga qadar o'ttizdan ortiq nufuzli musobaqaning qariyb sakson foizida mutlaq g'alaba qozongan va rasmiy janglarining biror-tasida ham mag'lubiyatga uchramagan leytenant I.Zaynobiddinov o'zi tug'ilib o'sgan Qo'rg'on tepa tumanidagi «Dardoq» qishlog'ida qo'l jangi maktabini tashkil etib, ellik nafardan ortiq yoshlarga sport sirlarini o'rgatib kelmoqda.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.


Andijon viloyati.

G'OLIBLIK NASHIDASI

Xalqaro toifadagi sport ustasi, uch karra O'zbekiston chempioni va jahon chempionati sovrindori Munis Mo'minjonov joriy yilning 22-24-may kunlari Toshkent shahrida MMA bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida 85 kg vazn toifasida mutlaq g'oliblikning qo'lga kiritdi. Sportchimiz hal qiluvchi final jangida afg'onistonlik raqibini nokautga uchratib, Osiyo chempionligi

shohsupasiga ko'tarildi. Yuksak jismoniy tayyorgarlik va temir intizom evaziga ulkan zafarlarga erishib kelayotgan qahramonimiz shu kunlarda joriy yilning noyabr oyida Saudiya Arabistonida bo'lib o'tadigan navbatdagi nufuzli xalqaro turnirga qizg'in hozirlik ko'rmoqda.

Ubaydullo QO'CHQOROV,
kapitan.



IRODALI IRODA

Chilonzor tumani IIOFMB HPB voyaga yetmaganlar masalasi bo'yicha inspektor-psixolog, leytenant Iroda Bekmirzayeva xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bir qatorda, sportda ham ulkan zafarlarni qo'lga kiritib kelmoqda. U harbiy-lashtirilgan va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida o'q otish sporti bo'yicha o'tkazilgan sport bo'yicha «Mergan kubogi» an'anaviy «Mergan kubogi» musobaqasida Makarov pis-toletidan 25 metr masofadagi nishonga 30 ta o'qni o'ta aniqlik bilan tekkizib, 275 ball jamg'argan holda mutlaq

ustunlik bilan g'oliblikning qo'lga kiritdi. Shuningdek, o'q otishdan tashqari, voleybol va yugurish sport turlari bilan ham faol shug'ullanuvchi leytenant I.Bekmirzayeva 2025-yilda voleybol bo'yicha o'tkazilgan «Vazir kubogi» bellashuvining respublika bosqichida Toshkent shahar IIBB terma jamoasi tarkibida faxrli 2-o'rinni egalladi. Bugungi kunda u o'zining jangovar shayligi va yuksak irodasi bilan hamkasblariga namuna bo'lib kelmoqda.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



В образовательных учреждениях системы МВД

УСТРЕМЛЕННОСТЬ В БУДУЩЕЕ

В академических лицеях МВД Республики Узбекистан состоялись мероприятия, посвященные выпуску 2026 года.



Ташкентский академический лицей № 1 МВД торжественно проводил во взрослую жизнь 198 своих воспитанников. Годы учебы в лицее стали для ребят периодом становления – они обрели прочные знания и закалили характер.

Нынешний выпуск наглядно продемонстрировал высокий уровень подготовки. По итогам обучения 13 выпускников удостоены дипломов с отличием, 3 учащихся награждены золотыми медалями за успехи в учебе. Кроме того, 115 выпускников имеют два и более международных и национальных сертификата, подтверждающих компетенции в области иностранных языков, IT-технологий, истории

и других предметов. За каждым из этих показателей – упорный труд лицеистов и профессионализм педагогического коллектива.

Большинство выпускников уже сделали свой осознанный выбор. Они намерены продолжить обучение в Академии МВД, встать в ряды стражей правопорядка. Это подтверждает, что ведомственные образовательные учреждения успешно выполняют свою миссию – воспитывают достойных юношей и девушек, готовых служить Родине и народу.

Юрий ЛИ,

педагог.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

На вашу книжную полку

СБДД: ОТ ИСТОКОВ ДО СОВРЕМЕННОСТИ

Вышло в свет историко-документальное издание – книга «Йўлларга туташ тақдирлар / На перекрестке судеб и дорог» (1936–2026). Оно выпущено издательством «Niso nashriyot va matbaa uyi» под общей редакцией начальника СБДД ДОБ МВД Узбекистана полковника Шерзода Ибрагимова. Авторами издания выступили ветераны органов внутренних дел: Михаил Татарников – подполковник в отставке, член Союза журналистов Узбекистана и Акмал Окилов – полковник в отставке, долгое время представлявший Узбекистан в Международной организации дорожного движения в Женеве.

Изданию посвящено тем, кто стоял у истоков службы, и тем, кто сегодня обеспечивает порядок на наших дорогах. Книга подробно описывает путь развития транспортной инфраструктуры и автомобильной промышленности в стране. На ее страницах отражены эволюция ПДД и этапы формирования и развития отечественной системы обеспечения безопасности дорожного движения. Ключевой посыл авторов – безопасность на дорогах зависит от каждого из нас. Подчеркивается, что взаимное уважение водителей и пешеходов, строгое соблюдение установленных правил являются основой, на которой держится порядок в дорожном движении. Издание вызовет интерес у широкого круга читателей.



Подчеркивается, что взаимное уважение водителей и пешеходов, строгое соблюдение установленных правил являются основой, на которой держится порядок в дорожном движении. Издание вызовет интерес у широкого круга читателей.

Ключевой посыл авторов – безопасность на дорогах зависит от каждого из нас.

Рафик ЕНИКЕЕВ.

Руководство и личный состав Главного центра правовой статистики Департамента цифровых технологий и правовой статистики МВД Республики Узбекистан, а также Совет ветеранов МВД выражают искреннее соболезнование семье и близким покойной в связи с кончиной старшего сержанта в отставке

ПАВЛОВОЙ Тамары Фёдоровны.

Аспект профилактики

ОТ ЖАЛОБЫ ДО СПРАВЕДЛИВОСТИ

Есть профессии, которые выбирают сердцем, следуя семейным традициям и чувству долга перед людьми. Именно такой путь избрал старший инспектор профилактики ОВД № 1 УВД города Нукуса капитан Абатбай Оралбаев.

Он родился в 1990 году в Кегей-лийском районе. В 2009–2010 годах проходил срочную военную службу в Караульных войсках МВД. После службы поступил в Академию МВД Республики Узбекистан, которую успешно окончил.

С июля 2014 года он в рядах сотрудников органов внутренних дел. Сегодня капитан Оралбаев несет службу в качестве старшего инспектора профилактики махаллинского схода граждан «Жекетерек» города Нукуса.

Обслуживаемая им территория отличается своей спецификой. Здесь расположены 25 улиц и большое количество многоквартирных домов. Махалля считается одной из самых оживленных в городе: здесь проживает большое количество приезжих граждан, функционируют кафе и рестораны, рынок строительных материалов, учебные заведения.

Ежедневная работа инспектора профилактики связана с постоянным взаимодействием с населением. В среднем за год капитан Оралбаев рассматривает около 1200 обращений граждан. Ежемесячно их количество составляет от 90 до 110, а ежедневно поступает по 3–4 обращения. Основными источниками обращений являются сообщения, поступающие через службу «102», портал, а также личные обращения граждан. Наиболее часто инспектору приходится сталкиваться с семейно-бытовыми конфликтами, соседскими спорами и разногласиями между супругами.

Особое внимание инспектор уделяет защите прав женщин, которые по тем или иным причинам не могут самостоятельно отстаивать свои интересы. При выездах по вызовам он, привлекая к работе председателя махалли, считая, что совместные усилия позволяют более эффективно решать возникающие проблемы. Высокие показатели служебной деятельности капитана Оралбаева подтверждаются конкретными результатами. На протяжении последних четырех лет он занимает первое место в Республике Каракалпакстан по выявлению административных правонарушений. За этот период им было оформлено 188 административных протоколов и возбуждено 13 дел.

Значительных результатов инспектор добился и при работе с обращениями граждан. В 2025 году, проходя службу на территории махалли, расположенной вблизи базара, он принял и рассмотрел наибольшее количество обращений, поступивших через службу «102». Это свидетельствует как о высокой нагрузке, так и о доверии населения к сотруднику, готовому оперативно реагировать на возникающие проблемы.

Кроме того, капитан Оралбаев занимает первое место по количеству выданных охранных ордеров. За каждым таким документом стоят конкретные человеческие судьбы и своевременно оказанная помощь гражданам, оказавшимся в сложной жизненной ситуации.

Профилактическая работа требует постоянного контакта с населением. Даже при отсутствии вызовов Абатбай Тлеубаевич находит время для пеших обходов территории. Личное общение помогает лучше узнать проблемы жителей и своевременно оказать необходимую помощь. По словам самого инспектора, практически все обращения граждан удается разрешить положительно. Исключение составляют вопросы, связанные с принудительным взысканием денежных средств и долговых обязательств. В таких случаях гражданам разъясняется их право на обращение в суд в порядке гражданского судопроизводства.

Для капитана Абатбая Оралбаева служба давно стала не просто профессией, а настоящим призванием – ежедневно быть рядом с людьми, защищать их права и делать все возможное для сохранения мира и спокойствия в обществе.

Юлия МУСТАФАЕВА,
соб. корр.



«SPORT» – THE WORLD OF WINNING SPIRIT, PROFOUND IMPRESSIONS AND THE LATEST NEWS, NOW IN ONE APP!

This section tells the story of the resilient personnel of the Ministry of internal affairs, who serve in the system and fly the flag of our Motherland high on the world and international stages.



The section features the latest sports news from the system, its major achievements, and the wide-ranging reforms aimed at enhancing the physical and combat readiness of its personnel.

By regularly reading our pages, you will not only stay informed about the triumphant journey of the peacekeepers, but also be inspired by their true spirit of courage and victory.

Read our publication and witness the most brilliant triumphs in the sporting world of the internal affairs agencies!

In remote areas THE VILLAGE DWELLERS TRUST THE INSPECTOR

After graduating from a higher education institution, Akmal Murodullayev, who had been involved in entrepreneurship, chose to serve in the internal affairs bodies on his father's advice. The young officer, who began his career in the Uchkuduk district, is now working effectively as the prevention inspector for the «Sharq» village community in the Tomdi district.

When he started his work, the area was in the «red» category for its crime rate. As a result of preventative work carried out in cooperation with the village council, elders and activists, the situation improved and the area was moved to the «yellow» category.

The area, which includes the villages of «Qizilquduq», «Aqtakir» and «Rohat», is home to approximately 6000 residents. Lieutenant Akmal Murodullayev has earned the trust and respect of the villagers through his dedicated work in addressing residents' concerns, ensuring youth employment, and preventing crime.



Probation service

EMPLOYMENT AND SOCIAL SUPPORT – A FACTOR IN PREVENTING RE-OFFENDING

Ensuring the social adaptation and employment of individuals under probation supervision plays a crucial role in preventing re-offending. To this end, the probation group of the Yakkabog district DIA, in collaboration with partner organisations, is carrying out systematic preventative work.

The social circumstances and problems of the 394 individuals under supervision are being studied, with particular attention paid to securing employment and providing vocational guidance

for women and young people. Furthermore, preventative talks are being held with prisoners who have previously committed serious crimes. As a result of the measures taken, 109 of those under supervision have secured permanent employment. As a result of successful rehabilitation, 106 inmates who had improved their behaviour were released from their sentences early. Of these, 9 were women and 27 were young people.

At the same time, punitive measures were strengthened against 11 individuals for vio-

lating the law. In particular, during the «Safe and healthy country» comprehensive special preventative measure, the sentence of A. K., who committed the crime of extortion, was commuted to a restriction of liberty. B. I., who had absconded from their residence in breach of the requirements of a custodial sentence, was apprehended during a search and remanded to a temporary detention centre.

Translated by Munavvar RASHIDOVA, docent.

Pride

FROM THE PRESIDENTIAL SCHOOL TO LONDON

Botirjon Kholmatov, a year 11 pupil at the Presidential school in Nurofshon, has been awarded a full scholarship to University College London, one of the world's leading higher education institutions, and has been accepted for a place.

Botirjon's family, and particularly his father, major Shuhrat Abdushukurov, an inspector for special assignments at the Ministry of internal affairs' Department

for spiritual and educational affairs and personnel supply, played a significant role in this achievement. His father instilled in his son a sense of discipline, diligence and loyalty to his country.

The prestigious university, ranked 9th in the QS World University Rankings, highly valued Botirjon's talent and potential, awarding him a full scholarship of 180 000 US dollars.

Botirjon also achieved high results

in international examinations. In particular, he scored 1 540 out of 1 600 in the SAT, placing him among the highest scorers in the world.

Thanks to the modern educational environment at the Presidential school, the support of his teachers, and his own diligence, Botirjon Kholmatov has demonstrated to his peers that a determined pursuit of one's goals leads to great success. This is another worthy achievement by the youth of the New Uzbekistan.



The Khorezm experience

SAFE MAHALLA: THE RESPONSIBILITY BEHIND THE CALM

In the «Oqmachit» mahalla of the Yangiariq district, senior preventive inspector, lieutenant colonel Bahodir Qalandarov, is carrying out effective service to ensure public safety. The mahalla is home to 3 030 residents in 555 households.

As a result of the preventative work being carried out, crime has steadily decreased, with 4 crimes recorded in 2023, 3 in 2024, and 1 in 2025. To date in 2026, no crimes have been committed. These results are being achieved through regular communication with residents and preventative measures.

Particular attention is also paid to citizens in the mahalla who are in need of social protection. In particular, regular assistance is provided to Gulnora Jumanioyova, a group I disabled person. Furthermore, J.A., who had a drinking problem, has returned to a



healthy lifestyle after receiving treatment with the help of specialists.

In the «Oqmachit» mahalla, the number of public enquiries is also decreasing thanks to the cooperation between the mahalla council, activists, and relevant organisations. This experience now serves as an effective example of ensuring a safe and peaceful environment in the Khorezm region.

KIM QANCHAGA «UXLADI»??

yoxud xaker nog'orasiga o'ynamay desangiz

Yarim tunda telegram ijtimoiy tarmog'i orqali xolamdan xabar keldi. Uyqu aralash o'qidim: «Salom, Dildorjon. Yaxshimisiz? Bemahal bezovta qilyapman, uzr. Menga shoshilinch pul zarur bo'lib qoldi. Imkonning bo'lsa, shu karta 600 ming so'm tashlab yubor, iltimos. 2-3 kunda qaytarib beraman», deb yozilgan va karta raqami ko'rsatilgandi. Xolam bilan avval ham pul oldi-berdi qilib yurganim uchun hech narsadan shubhalanmadim. Shunchaki so'ralgan pulni yuborilgan karta raqamiga o'tkazdim va yana uxlashga yotdim.

Ertalab telefonni qo'limga olib, odatdagidek, Telegramdagi qarindoshlar guruhiga kirdim. Voajab, bugun qarindoshlarim uchun qanaqadir muhim kun shekilli, ertalabdan 816 ta o'qilmagan xabar?! Keyin tushundim: qarindoshlar guruhini ari uyasiga aylantirgan sabab – xolamning raqamini firibgarlar o'zlashtirib, uning nomidan jamiki qarindosh-u tanishlardan pul so'rab chiqilgani ekan.



XO'SH, BU FIRIB BIZ UCHUN YANGILIKMI?

Aslida, shu kabi firibgarliklar tez-tez sodir etilayotgani haqida Telegram kanallari, internet saytlari, OAV orqali ko'p bora o'qidik, eshitdik. Ammo hamma qatori «Bu men bilan sodir bo'lmaydi, meni hech kim osonlikcha chuv tushira olmaydi», deb o'yladik va shu yerda xato qildik.

O'zimdanda qiyos, deyarli har hafta guruhlarimizga u yoki bu tanishimiz orqali firibgarlarning tuzog'iga tushib qolmaslikka chaqirilgan ogohlik xabarlar yuborib turiladi. Shunga qaramay, o'zim ham aldamdim.

ALDANGANLARNING YOSH CHEGARASI

Shu paytgacha qadar, ko'pchilik qatori, men ham firibgarlarga smartfon va messengerlarni uncha tushunmaydigan, hamma narsada faqat yaxshilik ko'radigan yoshi katta, sodda insonlar aldanib qolsa kerak, deb o'ylardim. Sababi, atrofidagi 50 yoshdan oshganlarning aksariyati telefoniga kelgan «apk» fayllarini ochib qo'ygani guvoh bo'lgandim.

Ammo chuv tushish yoshga mutlaqo bog'liq emasligini bugun angladim. Chunki «xolamning xabari»ga «labbay, deb javob berganlar»ning aksariyati 30-45 yoshlar orasidagi ongi uyg'oq, hushyor va ziyoli insonlar edi.

NEGA ALDANISH OSON?

Gap shundaki, firibgar sizdan shunchaki to'g'ridan-to'g'ri pul so'ramaydi. Avvalo, u raqamning egasiga «aylanadi». Ya'ni, uning siz bilan munosabatlari qanday, sizga nima deb murojaat qiladi, oldin pul oldi-berdi qilganmisiz – hammasini o'rganadi. Masalan, raqam egasi sizga «o'rtoqjon» deb murojaat qilgan bo'lsa, u ham xuddi shunday yo'l tutadi. Bunday murojaatdan so'ng, tabiiyki, sizda unga nisbatan hech shubha uyg'onmaydi. Shundan keyin u «o'z ishiga kirishadi». Hol so'raganingizda u o'zi yo'q yoki yaqini shifoxonaga tushib qolganini yoki baxtsiz hodisaga uchraganini ma'lum qilib, faloncha pulga ehtiyoji borligini yozadi. Tanish raqam, tanish murojaat shakli va hammada yuz berishi mumkin bo'lgan tanish

vaziyat... Imkonning bor va uning iltimosini yerda qoldirmaysiz. Hatto begonaning nomidagi karta raqamini yuborgan bo'lsa ham. Mabodo bu haqda so'ragudek bo'lsangiz, javob ham ishoniruvchi – «O'zimning kartam uyda qolibdi (yoki yo'qolgan). Bu yonimdagi tanishimning kartasi, ishonchli, pulni naqd chiqarib olaman».

Shundan so'ng to tanishingiz o'zi aytmaguncha aldanib qolganingizni bilmaysiz ham.

BUNDAY HOLATLAR FAQAT BIZDAMI?

Bugun internet, raqamli texnologiyalar davri. Hamma mamlakatlarda ular insonlarning hamrohiga aylanib boryapti. Xuddi bizdagidek firibgarliklar, uning tuzog'iga tushib qolish holatlari ham ko'p.

Yaqinda Turkiya telekanallaridan birida efirga uzatilgan dasturga ko'zim tushib qoldi. Malike Shahin ism-sharifli jurnalist uni tuzoqqa tushirmoqchi bo'lgan firibgarni «o'z oyog'idan osgani» haqida gapirib berdi.

Aytishicha, telefoniga advokatlik byurosidan xat kelgan. Xatda «Malike Shahin, sudda sizning nomingiz bilan bog'liq jinoiy ish ochilgan. Bu ishda sizni bizning byuromiz himoya qiladi. To'liq ma'lumot olish uchun quyidagi havolaga bosib yoki ko'rsatilgan raqamga qo'ng'iroq qiling», deb yozilgan ekan. Malike bu firibgarlar tuzog'i ekanligini angelaydi, havolaga kirmaydi. Shu kunlarda firibgarliklar ko'payib ketgani «o'z oyog'i bilan kelgan» mavzu yuzasidan ko'rsatuv tayyorlashni reja qiladi. Avvalo, advokatlik byurosi bor-yo'qligini tekshiradi. Voajab, haqiqatan ham bor ekan.

– Keyin byuroning rasmiy raqamiga qo'ng'iroq qilib, ulardan mening nomim bilan bog'liq sud ishi bor-yo'qligini so'radim, – deydi jurnalist. – Taxmin qilganimdek yo'q edi. Byuroda qaysi yo'nalishdagi advokatlar faoliyat yuritishini so'ra-

dim, ro'yxat yuborishdi. So'ngra menga xat yo'llagan «byuro raqami»ga qo'ng'iroq qilib, raqamimga xabar yuborishganini aytdim. U esa juda xushmuomalalik bilan ism-sharifimni so'radi. Chunki men kabi yana yuzlab, balki minglab insonlarga shunday xabar yuborgan-da. Suhbatdoshim bir necha yillardan buyon soliqlardan qochib yurganim uchun Turkiya G'azna va moliya vazirligi meni sudga bergani, mazkur byuroga esa advokatlik ishi yuklatilgani haqida juda ishonarli gapirdi. So'ngra ustalik bilan suhbatni pul mavzusiga burib, byuro o'z xizmati uchun oldindan haq olishini,

Xakerlarning nayrangiga qarangki, kecha boshqacha firib qo'llagan bo'lsa, bugun umuman yangicha usulni sinovga kiritadi. Xullas, ular har tomondan chiqib kelayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Shunday paytda siz-u bizdan talab qilingani esa biroz hushyorlik va ogohlikdir.

agar sudda yutib chiqishni istasam, to'lovni shu bugunoq amalga oshirishim kerakligini uqtirdi. Aslida, «Shu bugunoq to'lang!» degan

nomiga ochilgan shaxsiy karta raqami edi. Men unga firibgar ekanini payqaganim, suhbatimiz to'lig'icha yozib olingani, karta raqami esa egasining nomi bilan efirga berilishi haqida aytdim. U «Nimalar deyapsiz, adashyapsiz», degan so'zlardan boshqasiga o'ta olmadi va go'shakni qo'yib qo'ydi. Shundan so'ng u bilan qayta bog'lana olmadik.

«Nima deb o'ylaysiz, hammayam siz kabi firibgarni oson payqashi mumkinmi?» deb so'rashganida, Malike Shahin: «Firibgarlar meni ota-onamning ma'lumotlari, Vazirlikning qarorlariga juda o'xshash qilib tayyorlangan hujjatlar bilan shoshirib qo'ydi. Hattoki soxta havolasiga ham «org» qo'shimchasini qo'shgani ancha ishonarli. Lekin suhbatlashganda sizni sergak torttiradigan narsalar bo'ladi va buni e'tibordan qochirmaslik kerak», deb javob berdi.

«NEGA CHORA KO'RILMAYAPTI?»

Kishilarda «Xo'sh, firibgarliklar soni ortib ketayotgan bo'lsa, nega shunga qarshi choralar ko'rilmayapti?» degan savol tug'ilishi tabiiy. Yuqorida aytganimizdek, ogohlik signallari bor, lekin bu men bilan sodir bo'lmaydi, degan ishonchimiz yoki eringanimiz sababli biz ularni e'tiborsiz qoldiramiz. Aslida, tegishli tashkilotlar, Kiberxafsizlik xizmati xodimlari tomonidan fuqarolarni ogohlikka chaqiruvchi o'nlab xabarlar, videoqo'llanmalar tayyorlanib tarqatilmoqda. Biz ko'rishimiz va foydalanishimiz uchun ko'zimiz tushishi mumkin bo'lgan barcha ijtimoiy tarmoqlarga joylanmoqda.

Ammo bu xakerlarning nayrangiga qarangki, kecha boshqacha firib qo'llagan bo'lsa, bugun umuman yangicha usulni sinovga kiritadi. Xullas, ular har tomondan chiqib kelayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Shunday paytda siz-u bizdan talab qilingani esa biroz hushyorlik va ogohlikdir. «Mol achchig'i – jon achchig'i» deyishadi. Cho'ntagimizdagi pulni shunchaki birovlariga tutqazib qo'yishni istamasak, biroz uyg'oq bo'laylik! Balki shunda bizni hech kim «uxlatolmas».

Nima dedingiz?

Dildora BOZOROVA



gap odamni sergaklantirishi kerak. Lekin ularning bu o'yinini hamma ham bizdek oson payqay olmaydi. Unga roziligimni bildirib, to'lovni qanday amalga oshirishim mumkinligini so'radim. Raqam berdi, lekin u na vazirlik, na rasmiy tashkilotning hisob raqami emas, bir insonning

Turizm obyektlari

MA'NAVIYAT VA TARIX
UYG'UN MASKAN

Hazrati Bashir ziyoratgohi Qashqadaryo viloyatining eng go'zal va bahavo go'shalaridan biri bo'lmish Kitob tumani-da, mahobatli tog'lar bag'rida, Qashqadaryo daryosi sohilida joylashgan. Bu maskan nafaqat tabarruk ziyoratgoh, balki boy tarix, ilm-ma'rifat va qadimiy xalq rivoyatlarini o'zida asrab kelayotgan noyob madaniy meros maskani sifatida ham yuksak qadrlanadi.

Ziyoratgoh nomi shu yerda yashab o'tgan ulug' avliyo Hazrati Sulton Said Ahmad Bashir (1368–1464) nomi bilan bog'liq. Tarixiy manbalarga ko'ra, Hazrati Bashir Koflotun qishlog'ida tavallud topgan.

Rivoyat qilishlaricha, uning otasi Xo'ja Hasan 90 yoshda, onasi Bibi Malohat 80 yoshda bo'lishlarga qaramay, farzand ko'rishmagan ekan. Kunlarning birida shu tomonlarga yo'li tushgan sohibqiron Amir Temurning piri – Mir Said Barakaning ukasi Said Ne'matulloh ularning haqqiga xayrli duo qiladi.

Ko'p o'tmay, duo ijobat bo'lib, Hazrati Bashir dun-

yoga keladi. Biroq keksayib qolgan onadan sut kelmaydi. Chaqaloqni atrofdagilar «Beshir» (sutsiz) deb atay boshlashadi. Shunda Allohning mo'ijasi yuz berib, hovlidagi katta chinor ostidan chashma sizib chiqadi va undan go'dak emizikli yoshdan o'tgunga qadar sut oqadi. Bu chashma hanuzgacha saraton chillasida ham muzdek, tip-tiniq suvi va shifobaxshligi bilan mashhur. Ziyoratgohga kelganlar bu suvdan ichib, o'zlari bilan olib ketishadi.

Ulug' avliyo islom olamida yuksak ilmiy va ma'naviy salohiyat egasi bo'lib yetishgach,

u kishining ta'rifini eshitib, Misrdan tortib Mo'g'ulistongacha bo'lgan musulmon o'lkalaridan ko'plab toliblar kelib, shogird tushgan.

Naql qilishlaricha, Hazrati Bashir vafotidan oldin hassasini uloqtirib: «Qayerga borib tushsa, o'sha joy mening qabrim bo'ladi», degan ekan. Hassa ingichka tomoni bilan yerga qadalib, ildiz otadi va undan ulkan archa daraxti o'sib chiqadi. Shu sababli ham, boshqa daraxtlardan farqli ravishda, ushbu archaning pastki qismi ingichka, yuqori tomoni esa yo'g'on.

Mustaqillik yillarida ziyoratgohda keng ko'lamli obodonchilik va bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, obod maskanga aylantirildi. Hozir bu yerga har yili minglab yurtdoshlarimiz kelib, ulug' avliyoning Niyoztepadaqi qabrini ziyorat qilishadi. Muqaddas qadamjoga kuniga

150–200 nafargacha xorijlik va 1000 nafargacha mahalliy sayyohlar tashrif buyurmoqda.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2025-yilda majmuani 40 mingdan ziyod xorijlik va 500 mingdan ortiq mahalliy sayyohlar ziyorat qilgan. Joriy yilning o'tgan davri mobaynida esa chet ellik mehmonlar 6 mingdan, mahalliy ziyoratchilar 80 mingdan oshdi.

Maskanga tashrif buyurayotgan ziyoratchilar xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash maqsadida hududga 19 ta zamonaviy videokuzatuv kamerasi o'rnatilgan. Ushbu raqamli tizim viloyat IIB Tezkor boshqaruv markaziga to'liq integratsiya qilingan.

Muxtasar aytganda, Hazrati Bashir ziyoratgohi insonni nafaqat o'tmish bilan bog'laydi, balki xalqimizning ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari va tarixini chuqur anglashga ham undaydi. Zero, bunday tabarruk qadamjolar ota-bobolarimizning hayoti, e'tiqodi va boy ilmiy merosini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Javlonbek ALLAYEV,
mayor.

Qashqadaryo viloyati.



Bir ibora tarixi

«Qozonni os» iborasi, odatda, uyga mehmon kelganda uy sohibi tomonidan aytilgan. Ya'ni, ayoli mehmon uchun ovqat tayyorlashni boshlashi kerak bo'lgan. Ammo, bilamizki, ovqat tayyorlash uchun qozon osilmaydi, balki o'choqqa yoki gaz plitasi ustiga qo'yiladi.

«Qozon osmoq» iborasi aslida qadim ajdodlarimizga borib taqaladi. Ular bir joyda muqim yashamaganligi uchun qozonni o'rnatib emas, osib (ilib) qo'yib ovqat pishirishgan. Keyinchalik o'troq turmush kechirishga o'tgach, qozonni o'choqqa o'rnatib taom pishirishgan. Natijada bu ibora to'g'ri ma'nosini yo'qotgan, ya'ni haqiqatan, qozonni biror moslamaga osishdek xatti-harakatni emas, «ovqat pishira boshlash»dek ko'chma ma'noni kasb etgan va bugungi kungacha tilimizda ishlatib kelinadi.

Erkin SATTOROV tayyorladi.

**«ONASI,
QOZONNI OS!»**



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Mulohaza




Mana bu xabar anchadan buyon tinimsiz «aylanadi». Bir qarashda ma'no va mantiq yo'qdek, ammo kishini hushyorlikka chorlovchi vahima bor.

– Vahima – his-tuyg'u va kayfiyatning buzilishi bo'lib, kishini ko'rgan, o'qigan, eshitgan narsasi, ong ostidagi materiallar bilan birlashib, asossiz qo'rquv bosishi va hadik-sirashiga olib keladi, – deydi psixolog Dilorom Sotova. – Unga xavf-xatar yaqin turgandek, hayoti va oilasi, yaqinlari hayoti xavf ostida qolayotgandek hissiyotlar «yopishib oladi». Atrofimizga nazar tashlasak, har kuni yuzlab yangi axborotlar miyamizni to'ldiradi. Ulardagi pessimistik ruh va noxush tafsilotlar ong ostimizda

VAHIMALI AXBOROT kimga kerak?

Ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi sabab aholi o'rtasida vahima va qo'rquv uyg'otuvchi xabarlar ham tez va keng tarqalmoqda. Oxirgi paytlarda «Bola o'g'rilardan ehtiyot bo'ling» mavzusidagi xabarlarni ko'plab ko'rmoqdamiz. Hattoki ularga surat va videolar ilova qilingan holda tarqatilmoqda.



to'planib, har bir voqelikka negativ qarashni shakllantiradi. Bunday xabarlarning katta oqimi esa miyaga bosim berib, vahimani kuchaytiradi.

Mavzu yuzasidan Jizzax viloyati IIB Axborot xizmati bilan bog'landik. Maqsadimiz – ijtimoiy tarmoqlarda avj olgan vahimali xabarlarning rost-yolg'onligiga aniqlik kiritish, haqiqatda bola o'g'irlash



jinoyatlari bo'yicha statistik ma'lumot olish.

– Hududlarda bola o'g'irlari paydo bo'layotgani haqidagi xabarlarning tez tarqayotganiga sabablardan biri tarqatuvchilarning o'z auditoriyasini kengaytirish, ko'rish va tarqatishlar sonini oshirish maqsadida shu mazmundagi xabarlarning joylanayotganidir, – deydi viloyat IIB Axborot xizmati rahbari, mayor Abul-

qosim Ahmedov. – Yolg'on ma'lumot tarqatganlik uchun ham javobgarlik bor. Jumladan, aholi o'rtasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash – bazaviy

Atrofimizga nazar tashlasak, har kuni yuzlab yangi axborotlar miyamizni to'ldiradi. Ulardagi pessimistik ruh va noxush tafsilotlar ong ostimizda to'planib, har bir voqelikka negativ qarashni shakllantiradi.

hisoblash miqdorining ikki yuz baravari (68 mln)dan to'rt yuz baravari (136 mln) gacha miqdorda jarima yoki 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shu narsa aniqki, bir nafar bo'lsa ham o'g'irlangan yoki yo'qolgan bola ichki ishlar organlari uchun katta ahamiyatga ega holat hisoblanadi. Shu paytga qadar bedarak yo'qolganlar haqidagi xabarlardan tashqari, o'g'irlanganlar, xususan, bolalarning bu tarzda emin-erkin o'g'irla-

nishiga oid ma'lumot kelib tushmagan.

Ma'lumot o'rnida aytish joizki, viloyatda jami 545 ta kuzatuv, yuzni va avto-raqamlarni tanib oluvchi kameralar o'rnatilgan bo'lib, bu kriminogen vaziyatni nazorat qilish, sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha aybdor shaxslarni tezkorlik bilan topish hamda jinoyatga jazo muqarrarligini ta'minlashga salmoqli hissa qo'shmoqda. Xususan, joriy yilning o'tgan davrida qidiruvdagi shaxslardan 69 nafari ushlanib, jazo muqarrarligi ta'minlandi. Bedarak yo'qolgani uchun qidiruvda bo'lgan fuqarolarning 11 nafari topildi.

Kimki internetga ma'lumot joylarkan, foydalanuvchilar o'rtasida vahima uyg'otishga sababchi bo'lib qolmasligini o'ylashi lozim.

Kanal adminlari ham pozitiv xabarlardan ko'ra negativlar, yengil-yelpi va bachkana media mahsulotlarga talab katta ekanini yaxshi bilsa-da, ular ham javobgarlikni his etishlari shart. Ularga shu mazmundagi xabar keldimi, tarqatishga hissa qo'shmasligi, vahimaning yanada kengayishiga sababchi bo'lmasligi zarur.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.


YO'L HAQINI TO'LASH QOIDA EMAS, MAS'ULIYAT

Har bir yo'lovchi avtobusga o'z manziliga yetib olish uchun chiqadi. Ammo shu qisqa safar ortida katta tizim — haydovchi mehnati, yonilg'i, texnika, tartib va xizmat turibdi. Yo'l haqi esa to'lanishi lozim bo'lgan muhim hissadir.

Bir qarashda oddiygina to'lovdek tuyulgan yo'l haqi aslida jamoatga bo'lgan hurmat, tartib va mas'uliyat belgisidir. Uni to'lamaslik esa nafaqat qoidani buzish, balki halol to'lov qilayotgan yuzlab yo'lovchilar mehnatiga nisbatan befarqlik hamdir.

So'nggi yillarda avtobuslarga o'rnatilgan validatorlar jamoat transportida to'lov tizimini ancha yengillashtirdi. Endi yo'lovchilar naqd pul izlab ovora bo'lmaydi, karta orqali bir zumda to'lovni amalga oshiradi. Biroq texnologiyalar qanchalik qulaylik yaratmasin, mas'uliyat masalasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Afsuski, «hech kim bilmaydi» degan qarash bilan yo'l haqini to'lamaydiganlar ham uchrab turadi. Avtobus haydovchisi esa bu jarayonni doimiy nazorat qilishi qiyin.

Shu bois Toshkent shahrida jamoat transportida chiptasiz



harakatlanishga qarshi nazorat choralari kuchaytirilmoqda va to'lovni amalga oshirmagan yo'lovchilarga nisbatan qonun doirasida ma'muriy choralar qo'llanilmoqda.

Albatta, hayotda turli kutilmagan vaziyatlar ham bo'ladi. Masalan, kimdir xayol bilan to'lov qilishni unutib qo'yishi mumkin, ba'zida esa texnik nosozliklar yoki kartada yetarli mablag' yo'qligi kabi holatlar ham uchraydi. Bunday paytlarda ogohlantirish va tushuntirish ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jamoat transporti faqat qoidalar bilan emas, balki

odamlar o'rtasidagi o'zaro hurmat va insoniylik tamoyillari bilan ham yashaydi.

Jamoat transporti — umumiy mulkimiz. Uning tartibi, rivoji va qulayligi har bir yo'lovchining mas'uliyatiga bog'liq. Agar har kim o'z burchini sidqidildan bajarsa, yo'l haqini to'lash oddiy majburiyat emas, balki jamoatga bo'lgan hurmat ifodasiga aylanadi.

Farangiz QURBONOVA,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi.



Jinoyat va jazo

Tun yarmidan oqqan. Tug'uruqxona yo'laklaridagi sokinlikni faqat chaqaloqlar yig'isi buzib turardi. Yangi hayot bo'y ko'rsatayotgan bu maskanda kimdir onalik baxtidan ko'ziga quvonch yoshi olsa, kimdir taqdirning og'ir sinovi qarshisida dovdirab qolardi.

Shu kecha angorlik Go'zal Mardonova (ism-shariflar o'zgartirildi) ham farzandli bo'ldi. Ammo uning vujudida onalik mehri emas, qo'rquv va sarosima hukmron edi. Qo'lidagi murg'ak go'dak unga baxt emas, go'yo og'ir va yechilmaydigan muammo bo'lib tuyuldi.

Go'zal bir necha yillik intilishlardan so'ng Termizdagi oliygohlardan biriga o'qishga kirganida, o'zini dunyodagi eng baxtli inson deb hisoblagandi. Yaxshi mutaxassis bo'lishni, oilasiga ko'mak berishni orzu qilardi, ammo...

Talaba qiz hayotida kutilmagan burilish yuz berdi. U oliygohda tanishgan yigit – Otabekning «shirin» so'zlariga laqqa ishonadi. Vaqt o'tib, ikki yosh o'rtasidagi munosabatlarning achchiq haqiqati namoyon bo'ldi – Go'zal homilador edi.

Bu xabar Go'zalning butun hayotini ag'dar-to'ntar qilib yubordi. U qo'rqadi. Ota-onasi, yaqinlarining aytilajak ta'na-yu dashnomlarini o'ylab, dardini hech kimga aytolmay,

ichiga yutdi. Oy-kuni yaqinlashgani sayin qalbidagi vahima va muammolar ortib borardi. Bu yoqda o'qishning shartnoma puli, tirikchilik tashvishlari...

Shunda xayoliga dahshatli fikr keldi – tug'ilajak farzandidan qutulish. U chaqaloqqa xaridor izlay boshladi. Taqdir uni Termiz shahrida yashovchi Sadoqat Vafoyeva bilan uchrashtirdi. Suhbat avvalidagi sirdoshlik tez orada sovuq va jirkanch savdoga aylandi:

– Bolani olasizmi?..

Inson taqdiri, ona mehri, chaqaloqning kelajagi endi pul bilan o'lchana boshladi. Ular hali dunyoga kelmagan chaqaloqni 1500 AQSH dollariga baholashdi. Go'zal bu pulni o'qish shartnomasiga to'lashini aytib, go'yoki shu mablag' uni barcha muammolardan qutqaradigandek o'zini ovutdi.

Kunlar o'tib, Go'zal o'g'il farzand ko'rdi. Biroq qalbidagi so'nggi ikkilanish ham uni mudhish qadamdan to'xtata olmadi. Sadoqatni tug'uruqxonaga chaqirib, undan 1400 AQSH

ORZU, QO'RQUV VA
PUSHAYMONLIK

dollari va 1 million 200 ming so'm pulni sanab oldi.

Jinoiy savdo uzoqqa cho'zilmadi – viloyat IIB TQX Jinoyat qidiruv boshqarmasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbir davomida ikki ayol ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi.

Sud zalida Go'zal ko'z yoshlarini tiya olmadi. U qilmishining og'ir oqibatlarini, afsuski, juda kech anglab yetgandi. Qo'rquv va noto'g'ri qaror tufayli u nafaqat o'z hayotini barbod qildi, balki murg'ak go'dakning kelajagini ham xavf ostiga qo'ydi.

Sud tomonidan jinoiy holatga huquqiy baho berildi.

Bu voqeadan chiqariladigan achchiq xulosa shuki, muammolaning jinoyat ko'chasi orqali qochish insonni yechimga emas, yanada og'ir oqibatlariga yetaklaydi. Hayotning har qanday sinovini sabr, to'g'ri qaror, oqilona yo'l va yaqinlarning ko'magi bilan yengib o'tish mumkin. Andisha, qo'rquv yoki ojizlik tufayli qilingan xato butun umrlik pushaymonga aylanishi muqarrar.

Shohjahon RAHIMOV,
mayor.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Qilmish – qidirmish

Daraxtlarning asosiy ekologik foydali jihati, kislorod ishlab chiqarish va karbonat angidridni singdirish jarayonidir. Masalan, fotosintez jarayonida bir gektar yashil daraxtzor ajratadigan kislorod 200 kishining bemaolol nafas olishi uchun yetarli bo'ladi. Shu bilan birga, o'simlik har soatda 8 kilogrammgacha uglegislota gazini yutadi. Boshqacha aytganda, shahar havosining optimal miqdorda saqlanib turishi uchun har bir odam boshiga 50 kvadrat metr yashil daraxtzor bo'lishi lozim.

DARAXTNING HAM



JONI BOR

Afsuski, so'nggi yillarda daraxtlarga qiron keltirish chinakamiga avj oldi. Buxoro shahrida o'tgan yili ana shunday holat yuz berdi. Gap shundaki, «MINOR GROUP» MCHJ bilan viloyat hokimligi huzuridagi Yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi o'rtasida Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Buxoro filiali hududida yangi bunker va 30 o'rinli radiologiya bo'limi binosini qurish bo'yicha shartnoma tuziladi. Qurilish uchun ajratilgan yer maydonida bir necha turdagi daraxtlar mavjud edi. Ularni boshqa joyga ko'chirishga to'g'ri kelardi.

Qurilish tashkilotining ish boshqaruvchi lavozimida ishlab kelayotgan Odil Atoev

(ism-sharifi o'zgartirildi) tegishli tashkilotdan ruxsatnoma olmasdan, o'zboshimchalik bilan tunda ekskavator yollab, daraxtlarni kasalxona-ning boshqa hududiga ko'chirib o'tkazadi. Biroq ko'chirib o'tkazilgan daraxtlarning bir qismi qurib qoladi. O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti hamda «Toshkent botanika bog'i» mutaxassislarning xulosasiga ko'ra, 13 tup «Eldor qarag'ay», 2 tup «Go'zal katalpa» va 4 tup «Qayrag'och» ko'chirib o'tqazish oqibatida nobud bo'lib, tabiatga 163 million 500 ming so'mlik ko'p miqdorda moddiy zarar yetkazilgan.

– Mazkur jinoyat ishi atroflicha o'rganildi. Ayniqsa, guvohlarning ko'rsatmalari, to'plangan dalillar va sudlanuvchining aybi-

ga iqrorligi, xatosini anglagani inobatga olindi. Unga nisbatan ish haqining 20 foiz miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda, uch yil axloq tuzatish ishlari jazosi hamda yetkazilgan zarar fuqaroviy da'vogar viloyat Ekologiya va iqlim o'zgarishi bosh boshqarmasi orqali davlat foydasiga undirilishi tayinlandi, – deydi jinoyat ishlari bo'yicha G'ijduvon tuman sudi sudyasi Farhod Ergashev. – Hozirgi kunda yetkazilgan moddiy zararining undiruv qismi Majburiy ijro byurosi zimmasiga yuklatildi. Ular tegishli tartibda protsessual harakatlarni olib borishmoqda.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



ENG MUNOSIB XALQSAN O'ZING

YUKSAL, ELIM!

Dunyo dunyo bo'lib yaralgandan buyon,
Zamin koinotdan nur olgandan buyon,
Ma'rifatning yo'lida zo'r karvon bo'lding,
Iymon qo'ng'irog'i taralgandan buyon.
Yarashgaydir oftob bo'lib balqsang o'zing,
Yuksal, elim, eng munosib xalqsan o'zing.

Boshginangdan qancha davr-u davron o'tdi,
Yaxshi noming yerga urgan zamon o'tdi,
Alamlaring jon-jonimdan yomon o'tdi,
Yarashgaydir chaqmoqlarni chaqsang o'zing,
Yuksal, elim, eng munosib xalqsan o'zing.

Yodingdadir anduh to'la allalaring,
Boshginangga balo paxta dalalaring,
Dalalarda mayib bo'lgan bolalaring,
Bugun paxtadek toleyi oqsan o'zing,
Yuksal, elim, baxti kulgan xalqsan o'zing.

Haq so'z aytib, atrofga ming qarar eding,
Kun ko'rmasding, naq kuningni ko'rar eding,
Yaratgandan ro'shnoliklar so'rar eding,
Kuning keldi — o'z yurtlingda shohsan o'zing,
Yuksal, elim, sohibfarmon xalqsan o'zing.

Haqsizlikka qadim duchor kelgan elsan,
«Haq berilmas, haq olinur» degan elsan,
Xalqparvarning qadrin yaxshi bilgan elsan,
Bel bog'lading, ulug' yo'lda haqsan o'zing,
Ulug'ini aziz tutgan xalqsan o'zing.

HAH, NOMARD!

Nomardlik ham bir kasallik, jo'rajon,
Lekin undan do'xtirga yo'q daromad.
Qon tahlili ko'rsatishi dargumon,
Hah, nomard!

Tuzingni yeb, oshing oshab, qochgan shu,
Tashvish kelsa, shartta tashlab qochgan shu,
Boshqalarni tortib, boshlab qochgan shu,
Hah, nomard!

Ablah, o'g'ri, munofiq ham kazzob shu,
Vijdoniga pichoq tortgan qassob shu,
Otasini go'rga tiqqan azob shu,
Hah, nomard!

Otga minsa, piyodani tepadi,
Harom yoqib, xamir kabi ko'padi,
Oldindagi ot ketini o'padi,
Hah, nomard!

Belgisi shu: oriyat ham uyat yo'q,
Nomus taloq, g'urur yot, hamiyat yo'q,
Er sanalar, erkakecha tabiat yo'q,
Hah, nomard!

Onaizor zorligiga sabab u,
Bolaizor xorligiga sabab u,
Xiyonatning borligiga sabab u,
Hah, nomard!

Nomardlarning ko'lvordayin po'sti bor,
Zahri qotilida mardga qasdi bor,
Bitta mardning o'nta nomard do'sti bor,
Hah, nomard!

Biz ham uning qasamiga uchganmiz,
G'o'rlik payti do'stiman deb quchganmiz,
Chuv tushganmiz qayta-qayta, pishganmiz,
Hah, nomard!

Nomard dunyo, olay bori dardingni,
Nomardlarga qilay dori dardingni,
Menga ko'rsat bag'ri butun mardingni,
Hah, nomard!

ODAMLAR

Ichida it hurgan odamlar,
Aybim izlab yurgan odamlar.
Sizga yordam bergim keladi,
Meni yomon ko'rgan odamlar.

Kimga nom-u nishonim yoqmas,
Yo Bag'dodim, Qo'qonim yoqmas,
Erta olgan unvonim yoqmas,
Meni yomon ko'rgan odamlar.

Davrangizga kira olmayman,
Kirsam ko'nglim yora olmayman.
Sizga talant bera olmayman,
Meni yomon ko'rgan odamlar.

Osay deysiz, sirtmog'ingiz yo'q,
Uray deysiz, to'qmog'ingiz yo'q,
O'ladigan ahmog'ingiz yo'q,
Meni yomon ko'rgan odamlar.

Sizga uka, aka, jo'raman,
Duoyingiz qilib yuraman.
Men sizlarni yaxshi ko'raman...
Meni yomon ko'rgan odamlar.

Mushuk yotar — sher xayolida,
Kiyik tutib yer xayolida.
Men yurovdim she'r xayolida,
Meni yomon ko'rgan odamlar.

Bolangiz yurt uchun yashasin,
Dushmanga ham jonin to'shasin,
Farzandingiz menga o'xshasin,
Meni yomon ko'rgan odamlar.

O'ZINGNIKILAR

O'zimniki, deysan, jigaring pora,
Go'shtingni chaynaydi o'zingnikilar.
O'shalar g'amida xorsan, bechora,
Dardingni bilmaydi o'zingnikilar.

Birining ishi deb girjonsan Shoshda,
Birin o'qishi deb muammo boshda,
Agar ko'rinmasang nahorgi oshda,
Uzringni olmaydi o'zingnikilar.

Ular doim tayyor araz urishga,
To'nini ters kiyib, yuz o'girishga,
Ulgurji xaridor g'iybat, mish-mishga,
Sen so'lsang, gullaydi o'zingnikilar.

Bitta sen yugurdak, qolganlar arzdor,
Ular bari haqdor, bitta sen qarzdor,
Boshingga ish tushsa, Xudoga yolvor,
Yoningga kelmaydi o'zingnikilar.



Iqbol MIRZO,
O'zbekiston xalq shoiri

«Tanilib, o'zini bosolmay qoldi,
Semirib ketdi-yu ozolmay qoldi,
Pishdi», deydi, «Endi yozolmay qoldi»,
Hiring-hiringlaydi o'zingnikilar.

Yuraver suvlarga aytib tushingni,
Puxta tut ishingni, yig'vol hushingni,
Boshingda aylangan Humoqushingni
Tosh otib haydaydi o'zingnikilar.

Poshsho izzatingni qilgan bo'lsayam,
Kimligingni jahon bilgan bo'lsayam,
Senga Xizr nazar qilgan bo'lsayam,
Nazarga ilmaydi o'zingnikilar.

CHUMCHUQ BOLA

Chumchuq bola, kovak topgin munosib,
Kovagingni xas-pas bilan yasatgil.
Urinmagin yerda chuqur-choh qazib,
Chumchuqmisan, chumchuqlarga hasad qil!

Qo'ltig'ingga suv purkagan shishirib
Qo'yarmikan eson-omon tushirib?
Tog' boshida qo'yibdimi pishirib,
Chumchuqmisan, chumchuqlarga hasad qil!

Ang'izlarda teravergin doningni,
Mayli, chittak bila qolsin shoningni.
Nima qilding qiynab uvol joningni,
Chumchuqmisan, chumchuqlarga hasad qil!

Shu ketishda buting yirib o'lgaysan,
Havas qilsang, simyog'ochga qo'ngaysan.
Xudo bersa, chumchuqboshi bo'lgaysan,
Chumchuqmisan, chumchuqlarga hasad qil!

Avvalboshi, kovak topgin munosib,
Kovagingni xas-pas bilan yasatgil.
Jon koyitma burgutlarga choh qazib,
Chumchuqmisan, chumchuqlarga hasad qil!

SIZ HAM YURIBSIZ-DA...

Siz ham yuribsiz-da yashab jahonda,
Ikki xayolingiz bitta hamyonda.
Birovning pulini chamalab sanab,
Kuyib hasad degan qora qozonda.

Siz ham yuribsiz-da goh sog', goh mayib,
Kambag'al duch kelsa mag'rur, kekkayib.
Boyvachcha oldida eshilib ipday,
Amaldor yo'talsa, darrov enkayib.

Siz ham yuribsiz-da oshingiz oshab,
Dasturxon yoniga choponni to'shab.
Kimdir yashash uchun yeydi burda non,
Siz-chi, yeyish uchun yuribsiz yashab.

Siz ham yuribsiz-da haqiqat izlab,
Ko'zingiz yetmagan joylarni ko'zlab.
Xudodan qo'rqmasdan, xotindan cho'chib,
Xudoni sensirab, xotinni sizlab.



Саломатлик сабоқлари

БОШ ОҒРИҒИГА ДОРИСИЗ ЕЧИМ



Турли сабабларга кўра юзага келадиган, инсоннинг кайфияти ва иш қобилиятига салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган бош оғриғидан халос бўлишда илиқ душ қабул қилиш ҳар қандай доридан яхши таъсир қилади. Чунки илиқ сув бўйин ва елка мушакларини бўшаштиради, қон айланишини ҳамда уйку сифатини яхшилади, танани чарчоқдан халос этади,

асабни тинчлантиради. Оғриқ спазм ёки қаттиқ чарчаш туфайли юзага келса, илиқ душ самарали ёрдам беради.

ҲАРАКАТ – МИЯ ОЗУҚАСИ



Югуриш, юриш, машқ қилиш каби фаол ҳаракатлар миёна учун жуда фойдали. Чунки бу пайтда:

* миёнининг билим олиш ва эслаб қолиш учун жавобгар бўлган гиппокамп деб аталган қисми яхшиланади;

* ташвиш, хавотир, ваҳима каби ҳислар камаёди – жисмоний ҳаракатлар амигдала (бодомсимон миёна майдони) фаоллигини сусайтиради;

* танада қон айланиши яхшиланиши ҳисобига диққатни жамлаш ва ижодкорлик

хусусиятлари кучаяди.

Шундай экан, кунига камида 10–20 дақиқа фаол ҳаракатда бўлинг, ҳатто оддий сайр ҳам миёна «қайта ишга тушириш»га қодир. Пиёда юриш когнитив мослашувчанликни яхшилади. Жисмоний машқлар орқали нафақат танани, балки руҳий оламингизни ҳам соғломлаштиради.

ИСТЕЪМОЛДА ТУЗ
МЕЪЁРИНИ ОШИРМАНГ

Шўр таом ёки маҳсулотлар инсон саломатлиги учун зарарли бўлиб, турли касалликлар юзага келишига сабаб бўлиши, жумладан, суяк




мўртлашиши мумкин. Чунки ортиқча туз суяк тўқимасидан минераллар чиқиб кетишига олиб келади. Болалиқдан шўр маҳсулотларни кўп истеъмоли қилган инсонда скелетнинг нотўғри ривожланиши кузатилади. Суяклар шаклланиши даврида уларнинг мустаҳкам ва соғлом ривожланишига салбий таъсир кўрсатадиган омиллар бўлмаслиги жуда муҳим.

Шунингдек, шўр таомлар тананинг ички аъзоларига ҳам зарар етказиши ҳамда қон босимининг ошиши, юрак-қон томир касалликлари юзага келиши ва бошқа нохуш ҳолатларга олиб келиши мумкин. Танада туз йиғилиб қолмаслиги учун кун давомида етарли миқдорда сув ичиш тавсия этилади.

ТЎҒРИ НАФАС ОЛИНГ

Ҳамма кўникканидек кўкрак соҳаси эмас, балки қорин билан, аниқроғи, диафрагма билан нафас олиш тўғридир. Бу усул кўкрак билан нафас олишга қараганда қонни кислород билан кўпроқ тўйинтиради, қорин бўшлиғи аъзолари ўзини ўзи массаж қилишига ёрдам беради, ичаклар перистальтикаси (керилиши ва сиқилиши) ни яхшилади, шунингдек, асабни тинчлантирувчи таъсирга эга.


Ушбу шифобахш нафас олишни ўзлаштириш учун қоринни ҳаво шарчаси деб тасаввур қилиб, уни бир неча маротаба охиштиришга ва яна ўз ҳолига қайтаришга урининг. Бу машқни ётган ҳолатда бажарган маъқул, шуниси қулайроқ. Кейин эса аста-секин ўтирган ва турган ҳолатга ўтиш мумкин. Агар бу усулни тез-тез такрорлаб турсангиз, тўғри нафас олиш одатга айланади ва организм саломатлиги яхшиланади.

АСАБЛАРНИ ТИНЧЛАНТИРУВЧИ
ТАБИИЙ НЕЪМАТ

Ўзининг хушбўй ифори билан машҳур бўлган райхон А, К, С витаминлари, темир, кальций, фолий кислотаси ва марганецга бой. У инсон организми учун бир қатор фойдали хусусиятларга эга. Лекин, энг асосийси, у стресс гормони ҳисобланган кортизол ишлаб чиқилишини секинлаштиради. Ўсимлик асаб тизими аъзоларининг умумий ҳолатини яхшилашга, асабийлик ва руҳий тушкунликдан чиқишга ёрдам беради, уйқусизлик ва ҳолсизликдан фориғ этади.

Унинг барра барглари турли овқат ва салатларга қўшиб истеъмоли қилиш жуда фойдали. Бундан ташқари, унинг дамламаси ҳам яхши самара беради. Бунинг учун 3–4 ошқошиқ тўғралган райхон устига 1 литр қайнаган сув қўйиб, идиш қопқоғини ёпинг. 20 дақиқа давомида яхшилаб дамланган ичимликни кун давомида ичиш мумкин.

ХАВФНИ БАРВАҚТ АНГЛАНГ



Руҳий тушкунлик ва стресс ҳолатида организм қон томирларини кескин торайтирадиган ва қон босимини оширадиган гормонлар ажратиб чиқаради. Бу қисқа муддатли стресс учун нормал ҳолат. Лекин агар жараён узоқ вақт давом этса, қон томирлари доимий сиқилган ҳолатда қолади, дағаллашади, ўз эластиклигини йўқотади ва миёна қон боришини қийинлаштиради. Қандайдир вақтда қон босими томирлар бардош қилганидан юқори ўлчамга ошади. Ана шунда инсульт юз бериши: қон томири ёрилиши ёки тромблар унинг йўлини тўсиб қўйиши мумкин.

Стрессни енгишнинг энг самарали усули жисмоний фаолликдир. Ҳамиша ҳаракатда бўлинг, сайр қилинг, тоза ҳаводан чуқур-чуқур нафас олинг. Бу даврда хотиржам муҳитда ҳордиқ чиқариш, тўйиб ухлаш ҳам муҳим, чунки уйқусизлик стрессни кучайтиради.

НИМА ЗАРАРЛИ?



* Юрак учун – нотўғри овқатланиш, стресс, ортиқча вазн, кам ҳаракатлилик, истеъмолида туз миқдорининг кўплиги, уйқусизлик, спиртли ичимликлар, чекиш.

* Жигар учун – ёғли таом ва тайёр маҳсулотлар, кўп миқдорда дори-дармон қабул қилиш, гепатит касаллиги, спиртли ичимликлар.

* Ошқозон учун – аччиқ таомлар, кўп овқат ейиш, спиртли ичимликлар, чекиш.

* Бош миёна учун – ортиқча ширинлик истеъмоли, сурункали чарчоқ, уйқуга тўймаслик, стресс, спиртли ичимликлар, чекиш.

* Буйрак учун – тананинг сувсизланиши, шўр таом ва маҳсулотлар истеъмоли, назорат қилинмаган диабет, чекиш.

* Ўпка учун – ифлосланган ҳаво, нафас йўллари инфекцияси, сурункали стресс, кўп ўтирган ҳолатда бўлиш, чекиш.

ПИШЛОҚ ТАНАГА ҚУВВАТ БАҒИШЛАЙДИ

Ушбу маҳсулот оқсил, кальций, фосфор, рух, А, В ва D витаминларига бой бўлиб, организм учун жуда фойдали. 100 грамм пишлоқ кунлик кальций меъёрини олишга ёрдам беради. Бу эса суяклар, тиш, тоғай ва сочлар саломатлиги учун муҳим аҳамиятга эга. Пишлоқ иммунитетни оширади, асаб тизими фаоллигини яхшилади, модда алмашинуви миёнага солади ва танага қувват бағишлайди.



Маълумки, пишлоқ навларининг аксарияти бироз шўр бўлади. Истеъмолида туз меъёрини ошириш эса турли салбий оқибатларга, жумладан, қон босими ошишига олиб келади. Ёғли пишлоқлар эса вазн ортишига сабаб бўлади. Шу боис пишлоқни кўп миқдорда ейиш тавсия этилмайди.

Гулчеҳра АЗИМОВА тайёрлади.

ИИБ раҳбарияти, шахсий таркиби ва Фахрийлар кенгаши «Интерпол»нинг Ўзбекистон Республикасидаги Миллий марказий бюроси бошлиғи, генерал-майор Шухратжон Собировга опаси

МУБОРАК аянинг

вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

Xorij detektivi

Donald UESTLEYK

BIR «TASHRIF»NING AHAMIYATI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonda)

Men bu paytda ikkinchi mashinaga o'tib, oldindan tayyorlab qo'yilgan soqol, qora ko'zoynakni taqish, kepka va baland yoqali sviterni kiyish bilan ovora edim. Garri ham tezda o'z soqolini yopishtirib, beretini boshiga qo'ndirdi va sportchilarning yashil kamzulini kiydi, so'ng shosha-pisha dvigatelni ishga tushirdi. Men soatning soniya millariga qarab:

– Besh, to'rt, uch, ikki, bir. Ketdik! – dedim.

Biz xiyobondan chiqib, chapga burildik va qizil chiroq yonib ulgur-

Lekin hozir meni na shahar, na uning atrofidagi manzara qiziqtirar edi. Bu paytda faqat «Roud aeroporti» yozuvini ko'rishni istardim. Garri transportdan deyarli xoli yo'lda ishonch bilan mashinani haydab borarkan, men diqqat bilan yo'l belgilarini kuzatib ketardim.

Shahar hokimiyatiga tan berish kerak – yo'l belgilarini yetaridan ortiq o'rnatib tashlashibdi. Masalan, aylanma yo'ldan birinchi chiqish joyida «Chorak milyadan keyin Kallisto-Stritga chiqish» yozuvi aks etgan belgiga ko'zim tush-

vayr-Avenyu. Men asabiylashib soatimga qaradim.

– Garri, juda sekin yurmaysanmi, mabodo? Biz soatiga ellik milya tezlikda harakatlanishimiz kerak.

Garri ranjigandek bo'lib, labini burdi. U haqli ravishda bunday vazifalar uchun eng munosib haydovchilardan biri hisoblanar edi.

– Men soatiga ellik milya tezlikda

– Aniq sen kerakli burilishni o'tkazib yuborgansan, – dedi Garri.

– Bo'lishi mumkin emas. Men har bir ishoraga qarab ketyapman. Menimcha, spidometring ishdan chiqqan.

– Yo'q, u juda yaxshi ishlab turibdi.

Erxart-Strit, Villoubi-Leyn, Fayeruoll-Avenyu, Broud-Strit, Merigold-Xill-Roud...

ketyapman – dedi u va spidometr-ga ishora qildi.

Ammo men yo'l ko'rsatkichlarini kuzatish bilan band edim. Zo'r berib, «Roud aeroporti» yozuvini qidirardim.

– Lekin aeroportga burilish joyigacha yo'l ancha kam vaqt olishi kerak edi, – dedim men.

So'ngra soatga va yana yo'lga qaradim.

– Balki, spidometr buzilgandir. Balki, sen shunchaki qirq milya tezlikda ketayotgandirsan.

– Xafa qilyapsan, men ellik milya tezlik nimaligini yaxshi bilaman,

Men yana soatga qaradim.

– Garri, samolyotimiz hozirgina uchib ketdi.

– Sen soatga ko'p qarayapsan, – meni ayblashga tushdi Garri. – Shuning uchun ham ko'rsatkichni ko'rmas qolgansan.

– Men hech birini ko'zdan qochirmadim.

– Ana yana Shuilrs-Avenyuga kelyapmiz, – dedi Garri. – Adashmasam, boya halqa yo'lga aynan shu yerdan chiqqan edik.

– Qanday qilib ko'rmas qolishim mumkin? – hayron bo'ldim men. – Tezroq hayda, Garri! Bu safar adashmasligimiz kerak. Biron bir samolyotga ulgurib qolarmiz, axir.

Garri rul tomon egilib, bukchaygancha haydab borardi.

Ikkinchi aylanish yo'li yarmida bizni to'xtatishdi. Ko'zi o'tkir bir politsiyachi bizni yo'lda payqab qolgan (bungacha ular mashinamizning tavsifini olib bo'lishgan ekan) va bu haqda ratsiya orqali xabar bergan ekan. Shuning uchun sal narida politsiya yo'lini to'sib qo'yibdi. Biz to'siqqa yaqin to'xtadik va ular shu zahotiyiq bizni qo'lga olishdi.

Politsiya mashinasining orqa o'rindig'ida o'tirgan holda halqa yo'li tomon emas, endi teskari yo'nalishda ketayotganimizda, qo'limni kishan bilan o'z bilagiga mahkamlab olgan inspektordan asta so'radim:

– Aeroportga olib boradigan yo'l qayoqqa ketganini ayta ol-maysizmi?

U kuldi va mashina oynasi tomon ishora qildi:

– Mana u, yo'l ko'rsatkichida.

U qo'li bilan ko'rsatgan joyda «Chorak milyadan keyin Griffin-Roudga chiqish» yozuvi ko'rinib turardi.

– Griffin-Roud? – qayta so'radim. – Men «Roud aeroporti»ga borish yo'lini aytyapman.

– Bu xuddi o'sha yo'l. Shunchaki kecha uni Kenni Griffin sharafiga qayta nomladik. U mashhur as-tronavt. Biz taniqli hamshaharimiz bilan juda faxrlanamiz.

Hammasi tushunarli. Men esa o'sha astronavt haqidagi shu top-da xayolimga kelgan fikrlarimni tilimga chiqarmay qo'ya qoldim.

**Rus tilidan
Gulchehra AZIMOVA
tarjimasi.**



masidan svetoforga yetib keldik, keyin o'ngga burilib, uchta kvartaldan o'tdik; har safar svetofor yoniga vaqtida yetib kelar edik va oxiri halqa yo'lga olib chiqadigan joyga yetdik.

– Yo'l belgilariga qarab ket, – dedi Garri, – men esa harakatni kuzataman.

– Albatta, – dedim men.

Hozir deyarli har bir shaharda shunday halqa ko'rinishidagi aylanma yo'llar mavjud. Bu na-faqat shaharni aylanib o'tishni va chorrahalarda qolib ketmaslikni istagan haydovchilar, balki shaharning bir qismidan ikkinchisiga tezroq o'tib olishni xohlaganlar uchun ham juda qulay. Bu yerdagi aylanma yo'l yerdan baland ko'tarilgan halqa shaklida bo'lib, shahar va uning atrofini bemaol ko'ra olish imkonini berar edi.

di. Keyin «Kallisto-Stritga chiqish. O'ng tomondan harakatlaning» belgisi, sal nariroqda, aynan burilish joyida yo'ldan tushish tomonga yo'naltirilgan strelkali belgi: «Kallisto-Stritga chiqish».

Tabiiyki, bularning hammasi mahalliy aholi uchun qilingan va yo'ldagi belgilarda shu Kallisto-Strit qayerga olib borishi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Lekin siz aynan Kallisto-Stritga borishingiz kerak bo'lsa, kerakli burilishni hech bir holatda o'tkazib yubormas edingiz. Garri mashinani bu yerda ruxsat etilgan tezlikda soatiga 50 milyadan oshirmay haydab borar, men esa halqa yo'lidan har bir chiqish joyiga o'rnatilgan uchtadan standart belgilar birin-ketin o'tib borayotganini kuzatardim: Vudford-Roud, Igl-Avenyu, Griffin-Roud, Krouvel-Strit, Beshmilyalik yo'l, Esk-

– qat'iy javob berdi Garri. – Buni spidometersiz ham his qila olaman. Ishonching komil bo'lsin.

– Agar samolyotga kech qolsak, hammasi barbod bo'ladi, – dedim men.

Garri qovog'ini uyib, rulga yana-da yaqinroq egildi.

– Politsiya xodimlari kelib, hammani so'roq qilishni boshlab yuborgandir, – xavotir aralash dedim men. – Xiyobondan bizning mashina chiqib ketganini ko'rganlar bo'lsa, erta yoki kech buni aytishi mumkin. Shunda ular bizni aynan shu mashina va hozirgi qiyofamiz bilan qidira boshlaydi.

– Yo'l ko'rsatkichlariga yaxshilab qarab ket, – dedi Garri.

Boshqa ilojim ham yo'q edi. Remsen-Avenyu, De Vitt bulvari, Grin Midou xiyoboni, O'n yettinchi ko'cha, Glenrud-Roud, Pauers-Strit...

Bilib qo'yg'an yaxshi


ODDIY, AMMO MUHIM QOIDA

Samolyotda parvoz qilgan har bir inson biladiki, havo kemasi ko'tarilishi yoki qo'nishidan oldin styuardessalar: «Iltimos, illyuminator pardasini ko'tarib qo'ying», – deyishadi. Hatto har bir parda ochilishini nazorat qilib chiqishadi. Ko'pchilik buni shunchaki oddiy qoida yoki yo'lovchilar go'zal manzarani tomosha qilib ketishi uchun o'ylab topilgan, deb o'ylaydi. Vaholanki, mazkur oddiy talab xavfsizlik nuqtayi nazaridan muhim jihatlarga ko'ra belgilangan.

* Birinchidan, bort kuzatuvchilari samolyot tashqarisidagi vaziyatni diqqat bilan kuzatib turishi kerak. Chunki uchish va qo'nish – parvozning eng xavfli va mas'uliyatli pallasi hisoblanadi. Bu paytda kutilmaganda yong'in chiqishi, tutun paydo bo'lishi, texnik nosozlik yoki boshqa favqulodda holatlar yuz berishi mumkin. Shunday vaziyatlarda ekipaj a'zolari belgilangan qoidalarga ko'ra tezkor harakat qilishi lozim bo'ladi.

* Ikkinchidan, bu jihat inson ko'zining tashqi muhit yorug'ligiga moslashishi bilan bog'liq. Ma'lumki, yorug'likdan qorong'ulik yoki aksincha holatga o'tishda ko'z moslashishi uchun ma'lum vaqt talab qilinadi. Favqulodda vaziyat yuzaga kelganda esa har bir soniya g'animatdir. Shu bois har ehtimolga qarshi, yo'lovchilarning ko'zi oldindan tashqi muhit qorong'uligi yoki yorug'ligiga moslashtiriladi.

* Uchinchidan, ehtimoliy favqulodda holatlarda samolyot tashqarisidagi qutqaruvchilar va o't o'chiruvchilar bort ichida nima bo'layotganini, olov yoki tutun bor-yo'qligini, odamlar ko'proq qaysi qismda to'planganini oynalar orqali ko'rib, tezkor qaror qabul qilishadi. Bu




esa qutqaruv ishlarini tez va samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Bir so'z bilan aytganda, oddiy va ba'zan erish tuyuladigan talablar zahirida ham inson hayotini asrashga qaratilgan ulkan maqsadlar yotadi. Shunday ekan, parvoz chog'ida belgilangan talablarni mamnuniyat bilan bajaring. Zero, bu qoidalarni siz va atrofingizdagilar xavfsizligiga xizmat qiladi.

Gulchehra AZIMOVA
tayyorladi.

Gullar – tabiatning eng sirli durdonalaridan biridir. Ularning ba'zi turlaridan yer yuzida faqat bir necha dona qolgan. Jumladan, Qizil Middlmist kameliyasi (Middlemist's Red) bugungi kunda dunyodagi eng noyob gullardan biridir. 1804-yilda Xitoydan Angliyaga olib kelingan bu gul tabiatda butunlay yo'qolgan. Hozir faqat ikki tupi saqlanib qolgan. Biri Londondagi issiqxonada, ikkinchisi Yangi Zelandiyadagi bog'da. Yarqiroq qizil rangli bu gulning har bir kurtagi o'ziga xos tarovatga ega.

YO'QOLISH ARAFASIDAGI NOYOB GULLAR



Noyob gullar qatorida Malayziyaning Kinabalu tog'ida o'sadigan (Paphiopedilum Rothschildianum) Rotshild orxideyasi ham alohida o'rin tutadi. Uning o'ziga xos shakli va rangi tufayli «Kinabalu oltini» deb ataladi. Bu orxideyani yig'ish va savdosi qat'iy qat'iy taqiqlangan.

Dunyodagi eng yirik gul Raffleziya (Rafflesia) esa o'z hidi bilan mashhur – u ayniyotgan go'shtga o'xshash o'tkir hid chiqaradi. Bu gulning diametri bir metrgacha yetadi, lekin u faqat tropik o'rmonlarda o'sadi.

Insonlar tomonidan yaratilgan noyob navlardan Juliet Rose ham alohida e'tiborga loyiq. Uni yaratish uchun 15 yil va millionlab dollar sarflangan. Yana bir afsonaviy gul – Dorianes Palmera 300 yilda bir marta ochiladigan sirli o'simlik sifatida tanilgan.

Bu noyob gullarning aksariyati yo'qolish xavfi ostida. Iqlim o'zgarishi, o'rmonlarning qirilishi va odamlarning ortiqcha qiziqishi ularning hayotiga jiddiy tahdid solmoqda. Olimlar va ekologlar bu go'zalliklarni saqlab qolish uchun harakat qilmoqda. Tabiat – bizning umumiy boyligimiz. Uni asrash har birimizning vazifamizdir!

Internet manbalari asosida
Abdurahmon MUSTAFOQULOV tayyorladi.

OBUNA-2026

Aziz mushtariylar!

Siz 2026-yilning ikkinchi yarmi uchun «Postda-Ha nostry-At the post» gazetasiga obuna bo'lishni unutmadingizmi? Ichki ishlar organlari xodimlarining mashaqqatli va sharaflari xizmatini keng jamoatchilikka yetkazuvchi, burchga sadoqat, qonun ustuvorligi va fidoyilik haqida so'zlovchi, qariyb bir asrlik tarixga ega bo'lgan «Postda-Ha nostry-At the post» gazetasi — soha hayotining haqqoniy ko'zguvidir!



Fursat oz qoldi. Ma'naviy olamingizni boyituvchi, vatanparvarlik ruhini kuchaytiruvchi, sizga mutolaa zavqini baxsh etuvchi ushbu nashrga obuna bo'lishga shoshiling! Gazetaning 6 oylik obuna bahosi 200 (ikki yuz) ming so'm.

Murojaat uchun telefonlar: +99899-070-15-30,
+99897-420-89-24



MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar

Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Temir QURBONOV
Yuliya MUSTAFAYEVA

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1755.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
49745 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.